

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV kurs kunduzgi bo`lim bitiruvchisi  
Tursunova Shohidaning  
“NUTQNING VAZIFAVIY  
USLUBLARIDA EVFEMIZMLAR”**

**mavzusidagi**

*5220100- Filologiya (o`zbek filologiyasi) yo`nalishida bakalavr  
darajasini olish uchun yozgan*

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

(2011-2012- o`quv yili)

**Ilmiy rahbar:**

filologiya fanlari doktori,  
professor **M.Q.ABUZALOVA**

**Rasmiy hakam:**

pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent

**D.N.YO`LDOSHEVA**

**Buxoro – 2012**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV kurs kunduzgi bo`lim bitiruvchisi  
Tursunova Shohidaning  
“NUTQNING VAZIFAVIY  
USLUBLARIDA EVFEMIZMLAR”  
mavzusidagi**

*5220100- Filologiya (o`zbek filologiyasi) yo`nalishida bakalavr  
darajasini olish uchun yozgan*

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

(2011-2012- o`quv yili)

**Ilmiy rahbar:**

filologiya fanlari doktori,  
professor **M.Q.ABUZALOVA**

**Buxoro – 2012**

**Ma'qullayman** \_\_\_\_\_

Ilmiy rahbar: f.f.doktori,  
professor

**M.Q.Abuzalova**

“ ” \_\_\_\_\_ 2012-y.

**Tasdiqlayman** \_\_\_\_\_

O`zbek filologiyasi  
kafedrasini mudiri v.b.

**Q.R.To`xsanov**

“ ” \_\_\_\_\_ 2012-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Tursunova Shohidaning “**Nutqning vazifaviy uslublarida evfemizmlar**” mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

### TOPSHIRIQLAR JADVALI

<b>№</b>	<b>ISHNING MAZMUNI</b>	<b>BAJARILISH MUDDATI</b>	<b>NATIJA</b>
1.	Malakaviy bitiruv mavzuini kafedra va fakul'tet kengashida tasdiqlatib olish va rejalarini rasmiylashtirish	avgust	Ijro etildi
2.	Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy-usuliy materiallarni o'rganish	sentabr, oktabr, noyabr	Ijro etildi
3.	Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtai nazaridan o'rganish	oktabr, noyabr	Ijro etildi
4.	Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash.	sentabr -yanvar	Ijro etildi
5.	To'plangan materiallarni sistemlashtirish	yanvar	Ijro etildi
6.	Malakaviy bitiruv ishining 1-bobini tayyorlash	fevral	Ijro etildi
7.	Malakaviy bitiruv ishining 2- bobini tayyorlash va xulosalash	mart	Ijro etildi
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	mart-aprel	Ijro etildi
9.	Malakaviy bitiruv ishining borishi to'g'risida kafedraga hisobot berish	may	Ijro etildi
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish	may	Ijro etildi
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may	Ijro etildi

**Bitiruvchi kurs talabasi**

**Tursunova Sh.**

**Ilmiy rahbar**

**M.Q.Abuzalova**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi  
kafedrasining 10-yig`ilishi bayonnomasidan**

**K o ` c h i r m a**

Buxoro shahri

2012- yil 4- may

Qatnashdilar: kafedraning barcha a`zolari  
va bitiruvchi kurs talabalari

**Kun tartibi:**

**2011-2012-o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlarini  
himoyaga tavsiya etish.**

Yig`ilishda 4-kurs talabasi Tursunova Shohidaning f.f.doktori, professor M.Q.Abuzalova ilmiy rahbarligida bajargan **“Nutqning vazifaviy uslublarida evfemizmlar”** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishining yakunlanganligi to`g`risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini inobatga olib, o`zbek filologiyasi kafedراسi yig`ilishi

**QAROR QILADI:**

1. 4-kurs talabasi Sh.Tursunovaning f.f.doktori, professor M.Q.Abuzalova ilmiy rahbarligida bajargan **“Nutqning vazifaviy uslublarida evfemizmlar”** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Tursunova Shohidaning malakaviy bitiruv ishiga p.f.nomzodi, dotsent D.N.Yo`ldosheva rasmiy hakam etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**Yig`ilish kotibasi**

**Q.R.To`xsanov**

**G.Samandarova**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi  
kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan  
K o` c h i r m a**

Buxoro shahri

2011- yil 26- avgust

Qatnashdilar: kafedraning barcha a`zolari  
va bitiruvchi kurs talabalari

**Kun tartibi:**

**2011-2012-o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari  
mavzulari tasdig`i.**

Yig`ilish kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri D.Yo`ldosheva qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus komissiya ularni tekshirib chiqqanligini qayd etdi. Shundan keyin malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati yig`ilish kotibasi tomonidan o`qib berildi.

Malakaviy bitiruv ishlari mavzularini tasdiqlash taklifini yig`ilganlar qo`llab-quvvatladilar.

O`zbek filologiyasi kafedrasida yig`ilishi

**QAROR QILADI:**

1. Bitiruvchi kurs talabasi Sh.Tursunovanning bitiruv ishi mavzusi **“Nutqning vazifaviy uslublarida evfemizmlar”** etib tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Tursunova Shohidaning malakaviy bitiruv ishiga f.f.doktori, professor M.Q.Abuzalova ilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**D.Yo`ldosheva**

**Yig`ilish kotibasi**

**G.Samandarova**

# **NUTQNING VAZIFAVIY USLUBLARIDA EVFEMIZMLAR**

## **REJA:**

**Ishning umumiy tavsifi.**

- 1.Kirish. Evfemizmlar - nutq ko`rki**
- 2.Evfemik ma'no mezoni va ko`lami**
- 3.Evfemiyaning semantik tasnifi va ifoda usullari**
- 4.Evfemik vositalarning funksional-uslubiy tasnifi**
- 5.Evfemik uslub tasnifi**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

## ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning tadqiq darajasi.** Evfemiya o`zbek tilshunosligida kam o`rganilganligidan, u tilshunoslikning qaysi sohasi, til sathiga munosabati, til birligimi, nutqiy hodisami – umuman, uning o`rganish predmeti, tasviriy obekti haqida aniq fikrlar mavjud emas. Yoki leksik birlik deb qaralganligidan bo`lsa kerak, leksikologiya bahsidan o`rin olgan. Tabu va evfemizmga doir bayonlar “Tilshunoslikka kirish” va “O`zbek tili stilistikasi” kabi darsliklarda o`z ifodasini topgan hamda uning lisoniy xususiyatlari bir necha ilmiy maqolalar, risolalar obekti sifatida xizmat qilgan. Umumtilshunoslikdagi tabu va evfemizm haqidagi fikrlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin. Bular: 1) evfemizmlar ibtidoiy dunyoqarash (tabu) ta'sirida paydo bo`lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo`q bo`lib boradi; 2) evfemizmlar til materiali, passiv leksik qatlam sifatida mavjud; 3) evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi deyuvchilar. Bu qarashlar 1963-1964- yillardayoq N.Ismatullayevning “Hozirgi o`zbek tilida evfemizmlar” nomzodlik dissertatsiyasida o`z aksini topgan va maqolalari orqali o`zbek tilshunosligiga kirib kelgan [5,6]. Umuman, ushbu masala turkologiyada ma'lum nuqtai nazardan tekshirish obekti bo`lganligiga qaramay, uslubshunoslikning ham tadqiqot obekti sifatida allaqachon o`z echimini topishi kerak bo`lgan mavzu sifatida qolib kelmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi.** Faktlar evfemiyaning endi nutqiy qatlam sifatida, bir butun holda sistemali o`rganish, uning barcha nutqiy-botiniy imkoniyatlarini ochish, namoyon qilish, funksional-uslubiy xususiyatlarini tasvirlash, xususan vazifaviy uslub turlariga nisbatan munosabatini yoritish, bugungi uslubshunosligimizning eng muhim va dolzarb muammolaridan ekanligini ko`rsatadi. G`Abdurahmonovning “Endilikda adabiyotshunos va tilshunoslar oldida turgan muhim masalalardan biri adabiy uslub bilan nutq uslublarining umumiy va xususiy tomonlarini ochishdir” degan fikri ham ushbu mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi [2].

Kelajakda evfemik sinonimlar lug`ati (semantik-funksional lug`at) tuzish, uning tematik va izohli turlarini yaratish yoki uslubshunoslik bilan bog`liq darslik

va qo'llanmalar yozish kabi masalalar ham ana shu mavzuning maxsus shakllanishini taqozo qiladi.

### **Bitiruv ishining maqsad va vazifalari:**

- 1) tabu va evfemizmning tug'ilishi, evolyuqiyasi, undagi sababiyat va zaruriyatlar, tabulashtirish asoslari, buning evfemallashtirish bilan uzviyligini yoritish;
- 2) evfemik ma'no ( bunda mazmun tushunchasini ham anglaymiz) mezon, ko'lam va chegarasini, evfemiyaning til sathidagi o'rni belgilash;
- 3) evfemiyaning ifoda materialini – o'rganish obektini belgilash va tasvirlash;
- 4) evfemiya: a) semantik, b) ifodaviy, v) funkqional-uslubiy munosabatlarda tasniflash, g) evfemik uslubning vazifaviy uslub turlariga munosabatini yoritish va b.

**Ishning ilmiy yangiligi.** O'zbek tilshunosligida evfemik vositalarning funkqional-uslubiy xususiyatlari borasida ilmiy mushohadalar yoritildi. Buning uchun, avvalo, evfemiyaning o'rganish obekti – predmetini o'rganishga harakat qilindi. Umumtilshunoslikdagi nazariy materiallar asosida tilimiz evfemik qatlamiga doir bir qancha evfemik matn tahlil qilindi, evfemik ma'no kategoriyasiga mezon, me'yor, norma belgilandi.

Shundan kelib chiqib, evfemaning til sathidagi o'rni belgilandi, lisoniy va nutqiy ( individual, okkazional) evfemalar farqlanib, ularning uslubiy qimmati yoritildi. Evfemiyaning ekstralingvistik ( noverbal, kinetik) vositalari tasvirlandi: a) semantik, b) ifodaviy, v) funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilindi. Evfemik matn asoslari nazariy va amaliy jihatdan ishlandi, ularning nutqiy qimmatiga baho berildi.

Umuman, ishda tilimizning evfemik qatlami tarixiy-etnografik hodisa yoki passiv leksik qatlam sifatidagina emas, balki uslubshunoslikning ( xususan, uslubning badiiy, publitsistik, so'zlashuv turlarining) mundarijasini to'ldiruvchi, boyituvchi, emotsional-ekspressiv nutq uchun ham xizmat qiluvchi soha ekanligi yoritilgan.

**Ishning metodologik asoslari va tadqiq usuli.** Tadqiq jarayonida tasavvufiy dialektikaning zot va tajalli, umumiylik va xususiylik, juz'iyat va kulliyat kabi

sabab va oqibat mantiqiy qonunlari va ularning uzviylikiga asoslanildi. Masalan, lisoniy hodisalar umumiy, mavhum, ayni zamonda imkoniyatdor, mohiyatli; tajalli esa uning xususiylanishi – nutqiy namoyoni, jilvalanishi sifatida idrok etildi. Bunda bitta umumiy tushuncha ( tabulashtirilgan obekt) birdan ortiq ( 10, 20, 30 va h.k.) xususiy tushuncha –evfemik vositalarning shakllanishida asos bo`lib xizmat qilishi aniqlanildi. Ishda faktlar semantik-uslubiy analiz metodi asosida tadqiq qilindi va tilshunoslikda keng tarqalgan tasviriy, tavsifiy, qiyosiy (sinxron, ba`zan diaxron planda) matn tahlili, sintez, analiz metodlaridan foydalanildi.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur ishning nazariy xulosalari o`zbek tili evfemiyasini ( masalan, vazifaviy uslub turlarining evfemiyasi, professional nutq evfemiyasi, noadabiy til vositalar evfemiyasi kabi) o`rganishga yo`l ochishdan tashqari, umuman, matnshunoslik nazariyasi, uslubshunoslik, til va nutq, nutq madaniyati, nutqshunoslik, so`z qo`llash san`ati, badiiy mahorat, tasviriy vositalarni o`rganish, ularga norma, mezon, chegara belgilash masalalarini tadqiq etish doirasini yanada kengaytirishga yordam beradi. Evfemiyaning fan sifatida shakllanishiga boshlang`ich asos bo`ladi. Ish maxsus kurslar o`qish, darslik va qo`llanmalar tuzishda manba bo`lib xizmat qiladi. To`plangan evfemik matnlar va keltirilgan parchalar evfemik lug`atlar ( izohli, sinonimik, tematik) tuzishga imkon beradi.

**Bitiruv ishining materialini** har xil janrlardan olingan faktik materiallar - evfemik matnlar tashkil qiladi.

**Ishning sinalishi.** Bitiruv malakaviy ish mavzusi o`zbek filologiyasi kafedrası yig`ilishida tasdiqlangan. Mavzuning o`rganilishi yuzasidan yig`ilishlarda axborot berilgan.

**Bitiruv ishining hajmi** 51 betni tashkil etadi. Bitiruv ishi Ishning umumiy tavsifi, 5 qismdan iborat , xulosa va adabiyotlardan tashkil topgan.

## **1.KIRISH. EVFEMIZMLAR – NUTQ KO`RKI**

Keyingi yillarda tillararo va madaniyatlararo munosabatlar kuchayganligi sababli tilshunoslar va sotsial psixologlarning e'tibori turli xalqlarning muomala madaniyatini, unda ishlatiladigan ishoralar, milliy holatlarni, urf-odat va adab normalarini o'rganishga qaratilmoqda. Chunki milliy, madaniy o'ziga xoslik o'sha xalqning xulqida, madaniyatida, so'zlashuv jarayonida o'z aksini topadi.

Har bir shaxs nutq jarayoniga o'z xalqi muomala madaniyatiga xos xususiyatlardan foydalangan holda aloqaga kiradi. Har qanday shaxs ma'lum muhitda shakllanar ekan, shu muhitda kishilar bilan aloqa-aralashuvda bo'ladi. Tilning sotsial mohiyatini xarakterlaganda til va xalq madaniyati, til va jamiyat masalalarini dialektik birlikda olib qarash maqsadga muvofiqdir. Har qanday jamiyatda madaniyatning rivojlanish jarayoni unga xizmat qilayotgan til bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, shu bilan birga til ham jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Til insoniyat tarixida insonning hayvonot olamidan ajralib chiqishiga, iqtisodiy takomil topishiga, siyosiy tashkilotlarga birlashishiga, o'zlarining tafakkurlarini o'stirishga, tabiat kuchlariga qarshi kurashib, hozirgi zamon taraqqiyot darajasiga erishishga olib keldi.

Mamlakatimizning istiqloлга erishishi o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Istiqloл tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish» davlat ahamiyatiga molik ekanligini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hayotimizdagi eng muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Negaki, asrlar davomida amalga oshmagan xalqimiz orzusi ro'yobga chiqdi. Bir paytlar oila, ko'cha va oddiy so'zlashuvda ishlatilib kelingan o'zbek tili endilikda dunyo miqyosidagi yirik anjumanlarni o'tkazish darajasidagi til sifatida maydonga keldi. Xo'sh, buning tub mohiyati nimada? Albatta, til xalq va millatning ko'zgusi. U har bir xalqning va millatning yashash tarzini, ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini, turmushini, urf-odatlarini o'zida namoyon etadi. Shunday ekan, o'zbek tili o'zbek

xalqining ijtimoiy hayot tarzini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab o`zbek tilining imkoniyat doirasi yanada kengayib bordi. Xususan, uning ijtimoiy til faktori sifatidagi mavqei oshib bormoqda. Keyingi yillarda jahon tilshunosligida (ingliz, nemis, fransuz, rus) bo`lgani kabi o`zbek tilining barcha sathlari bo`yicha ko`plab ilmiy izlanishlar qilinmoqda, darslik, qo`llanmalar hamda maqolalar yaratilmoqdaki, buning o`zi o`zbek tilining taraqqiyotiga sezilarli ta`sir qilmoqda. Xususan, ijtimoiy lingvistika (sotsiolingvistika, pragmalingvistika...) sohasida olib borilayotgan ko`pgina tadqiqotlar o`zbek tili taraqqiyotidagi muhim va dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi, «Ta`lim to`g`risida»gi qonunlari, Kadrlar tayyorlash bo`yicha Milliy dasturida ma`naviy-ma`rifiy tarbiya, til masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Prezidentimiz I.Karimov 1999 yilning iyunida «Fidokor» gazetasining muxbiri savollariga bergan javoblarida o`zbek tilini “o`zbek millatining ruhi” deb baholadi. Fikrni ona tilida mustaqil, ravon, go`zal va lo`nda ifoda eta olish uchun kishida nutqiy madaniyat etarli darajada bo`lmog`i lozim. Zero, nutk madaniyati tildan bemaolol va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishni ta`minlaydigan imkoniyat sifatida ardoqlab kelinadi. Ma`noli va bejirim gapira bilish, so`zning munosib o`rnini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar o`zbek xalqi tarixida inson umumiy axloqining, ma`naviy etukligining tayanch ustunlaridan sanaladi. Haqiqiy ma`nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma`naviy-ma`rifiy islohotlar olib borilayotgan bir paytda nutq madaniyati masalalari, yoshlarning nutqiy madaniyat ko`nikmalari va malakalarini oshirish, ta`lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini doimo nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Sharq xalqlari madaniy merosiga nazar tashlasak, ulkan ilmlar, betakror ishoratlar, nozik ma`nolar ummoniga o`xshaydi. Bu ummon bag`rida juda ko`p ma`naviy boyliklar yashiringan. Bunday ma`naviy boyliklarni topib, undan bahramand bo`lish zehnimizga, idrokimizga bog`liq. Zehniy teranlik, beqiyos idrok saxovati bizga ota-onalarimizdan qolgan buyuk ne`mat hisoblanadi. Chunki

o`tmishda yaratilgan ilmiy va badiiy merosimizda xilma-xil ishoratlarga bezangan xazina mavjud. Shu xazinani yuzaga chiqaruvchi, qo`riqlovchi, avloddan-avlodga o`tib kelishini ta`minlovchi vosita hamda uning kaliti til hisoblanadi. Shunday ekan, biz til qudratining sharq xalqlarida qanday qadrlanganligini bilmasak, tilimizga e`tiborimiz susayadi. Ayniqsa, tildagi ishoratlar xazinasini chuqur anglamaslik ma`naviy qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ma`naviy kamolotga erishishda madaniy merosimizdagi ishoratlar xazinasini chuqur o`rganish va undan bahramand bo`lishimiz zarurdir. Ma`naviy kamolotning debochasi tildan o`rinli foydalanish va sharqona lutfni to`g`ri tushunish hisoblanadi.

“Sharqona lutf” birikmasi tarkibidagi “lutf” so`zi arabcha so`z bo`lib, muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala, marhamat kabi ma`nolarni bildiradi. Bundan tashqari “erkinlik” ma`nosini ham ifodalaydi.<sup>1</sup> Lutf so`zi keyingi davrlarda “muloyimlik” ma`nosi asosida “silliq muomala”ni ham bildirmoqda. Sharqona lutf deganda, turli ishoratlarga boy bo`lgan, nozik did bilan aytilgan va tagma`nolar vositasida murakkablashgan nutq tushuniladi. Ana shunday nutqning lisoniy asosi mavjud bo`lib, ular turlicha tahlil etiladi. Ayniqsa, o`zbek tili nuqtai nazaridan tekshirilsa, bunday holatlar nihoyatda ko`pligi hamda o`ziga xos xususiyati turli nutqiy jarayonlarda yuzaga chiqishi ko`zga tashlanadi.

Lekin bunday nutq nihoyatda zukkolik bilan irod etiladi. Notiqdan badiiy zukkolik va nozik idrok talab etadi. Alisher Navoiy “... bu tilda g`arib alfoz va ado ko`pdur. Muni Xush oyanda tartib va raboyanda tarkib bila bog`lamog`ning dushvorligi bor”, - deb tildagi murakkablikka ishora qiladi.<sup>2</sup> (Mazmuni: “Bu tilda ajoyib so`zlar va ifodalar ko`p. Buni xush keluvchi, go`zal tuyiluvchi va jozibador tartibda bog`lash juda qiyin”).

**Nutqimizda evfemizmlarni qo`llash ham bu bir madaniyatlilik, sharqona lutf qilish belgisidir.** O`zbeklar nutqida evfemizmlarning ko`p qo`llanilishi xalqimizning andishaliligidan, halimligidan dalolatdir, desak mubolag`a bo`lmaydi.

---

<sup>1</sup> П.Шамсиев, С.Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972 йил, 341-б.

<sup>2</sup> А.Навоий. Мухокаматул-луғатайн. Асарлар. 14-том. Т.,1967 й., 107 б.

Bilamizki, evfemizmlar ham til boyligimizning, nutqimiz ko`rkining ko`rinishlaridan biridir. «Yaxshi gapirmoq», «silliq so`zlamoq» ma`nolarini beruvchi **evfemizm** atamasi muloqot jarayonida so`zlovchining nutqini qo`pol so`zlarni qo`llashdan yoki tinglovchining «ko`ngliga tegishi mumkin» bo`lgan noqulay so`zlarni ishlatishdan saqlash bilan bog`liq, ammo bu evfemizmlar qo`pol, noqulay ma`noni beruvchi so`z ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizm ifodaga ijobiy yondashuv orqali yuzaga keladi [9]. Va yana nutqda evfemizmlardan foydalanish kishining madaniyatlilik, farosatlilik darajasini ham belgilovchi me`yorlardan biridir.

Nutqda evfemizmlarni qo`llash xalqimizning qadim tarixi, urf-odatlarini, umuman, ruhiyati bilan bog`lanadi. Masalan, «o`lmoq» fe`lining evfemizmlari paradigmatic qatorini hosil qilsak, undan o`rin olgan, o`rin olayotgan birliklar talaygina ekanligini, mazkur evfemizmlarning ba`zilari hozirgi kunda arxaik xarakter kasb etganligini kuzatishimiz mumkin. «O`lmoq» fe`lining o`rnida qo`llanuvchi evfemizmlarning ba`zilariga diqqatimizni qarataylik.

1. «...Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to`rtida Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, **shunqor bo`ldi**. O`ttiz to`qquz yoshar erdi...» [Bobur Z.M. Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha, 1989.]

2. «...Sarvi gulning soyasida **so`ldi** gul, netmak kerak?» (Rivoyatdan)

3. «.. (Farhodning) fano bodasidin **paymonasining to`lg`oni** va ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgani va sog`olmas maydin jonon yodi bila mast bo`lub **jonidan kechgoni**» [Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1989.]

4. «Qilib jononi otin tilga ta`lim,

Tutub jonon otin, **jon etti taslim**.»[ Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1989. ]

Demak, «o`lmoq» fe`lining o`rnida qo`llanuvchi evfemizmlar uyasidan quyidagilar o`rin oladi: «shunqor bo`lmoq», «so`lmoq», «paymonasi to`lmoq», «jonidan kechmoq», «jon taslim etmoq», «dunyodan o`tmoq», «joni uzilmoq», «vafot etmoq», «qazo qilmoq», «jon bermoq», «dunyodan ketmoq», «tiriklikni tark etmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan baqoga rixlat etmoq», «shahid

bo`lmoq», «ruhi uchmoq», «yo`qolib qolmoq», «chirog`i o`chmoq», «jonini egasiga topshirmoq», «ko`z yummoq», «egamning marhamatiga bormoq», «oyoq cho`zmoq», «oyoq uzatmoq», «yostig`i qurimoq», «tashlab ketmoq» va boshqalar. Bu sirani yana bemalol davom ettirish mumkin. Mazkur evfemizmlar orasidan «shunqor bo`lmoq», «fanodan baqoga ketmoq», «fanodan baqoga rixlat etmoq», «shahid bo`lmoq», «egamning marhamatiga bormoq» kabilar arxaik xususiyatga ega bo`lib, ularni jonli so`zlashuvda emas, faqat badiiy asarlar tarkibida uchratamiz.

Shuningdek, «so`lmoq», «jon taslim etmoq», «qazo qilmoq», «chirog`i o`chmoq», «yostig`i qurimoq» kabi evfemizmlar badiiy nutqqa xos bo`lsa, «yo`qolib qolmoq», «qatorimizdan kam bo`lmoq», «ko`zimizni yoshlab ketmoq», «yolg`on dunyodan chin dunyoga ketmoq» kabi evfemizmlar shevalarda ko`p uchraydi.

Va yana kuzatishlarimiz shuni ko`rsatadiki, oddiy so`zlashuv nutqimizda tez-tez ishlatiladigan, qo`pol yoki ishlatilishi noqulay hisoblanmagan «yiqilmoq», «engilmoq», «yiqitmoq», «engmoq» kabi qator umumiste`mol so`zlarimizning ham maxsus soha egalari nutqida evfemizmlari mavjudki, bu so`zlarning lug`aviy ma`nosiga o`sha soha egalari nuqtai nazaridan yondashsak, buning tabiiy hol ekanligini anglaymiz.

Misollarga murojaatni Said Ahmad ta`biriga ko`ra: “o`z ona tilini benihoya yaxshi biladigan, bilgandayam butun ranglari bilan, ohanglari bilan biladigan, shu bois (asarlarini) sof o`zbekcha bitadigan, (to`g`rirog`i) o`zbek tilini kuylatadigan, o`zbek tilining jami jilvalarini oftobga solib ko`rsatgan” Tog`ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidan keltiraylik. Qissada kurashchilar nutqiga xos talaygina evfemizmlar borligini ko`ramiz. Chunonchi, asarda kurashda *yiqilish, engilish* so`zlari umuman qo`llanilmaydi, ammo aynan shu so`zlarning ma`nosini beruvchi *yag`irini yer ko`rmoq, elkasi yerga tegmoq, orqasi yerga tegmoq, kuragini yer o`pmoq, yag`rinini yer iskamoq, yulduz sanamoq* kabi evfemizmlar yoki *yiqitmoq, yengmoq* lug`aviy birliklari o`rnida *terib tashlamoq, mom qilmoq, yulduz sanatmoq* kabi evfemizmlar ishlatilgan.

1. «Shu Bakrboyning Samarqandda o`qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O`tgan yili kelganda Sariosiyoni *mom qilib edi*.» (Tog`ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. –Toshkent: SHarq, 2009.)

2. «Regardan O`tan polvon chiqib, Surxondaryoning suyangan tog`larigacha *terib tashladi*.» (38-bet)

3. «Bo`ri polvon O`tan polvonni cho`nqaymagan *olib urdi*. Surxondaryoning shon - sharafini ko`tardi.» (39-bet)

4. Oqibat... Bo`ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta **elkasi er ko`rdi**.

5. Kimsan Bo`ri polvon *elkasi erga tekkizgan* Ismoil polvon! (53-bet)

6. Sport ustasi Maksim polvon **yulduz sanadi**. Ha-l-o-o-ol.

Yoki asarda *qariqiz* so`zi mutlaqo ishlatilmaydi, ammo uning ma`nosini beruvchi *bir tengi yo`q, tengi topilmagan* kabi evfemizmlar ishlatiladiki, bu o`sha qizning holatida bo`lgan kitobxonning ham «ko`nglini ayaydi».

Asarda faqat kurashchilar nutqiga xos bo`lgan evfemizmlardan tashqari «xotin olmoq» birligi o`rnida «begona qilmaslik» (Bo`ri polvon Suluvni **begona qilmadi**) (64-bet) yoki bugungi kunda biz yoshlarning nutqida uyat, noqulay sezilmaydigan «sevmoq» lug`aviy birligi o`rnida «ko`z ostiga olmoq» (Bo`ri polvon ana shu qizni *ko`z ostiga oldi*), «ko`ngliga o`tirmoq» (Suluv Bo`ri polvon *ko`ngliga o`tirib qoldi*) kabilar ham ishlatilganki, bu tilimizning jozibadorligi yozuvchi mahoratiga asos bo`lganligidan dalolatdir.

**Ko`pkori** (uloq, kurash) ko`proq sunnat (xatna) munosabati bilan o`tkazilganligidan, sho`ro davrida xurofiy, bid`at yoki eskilik, islomiy deb qaraldi, holbuki, markaziy osiyoliklarning bu marosimlari Islomdan muqaddam ham rivojlangan edi (masalan, chavgon, poyga kabi ot o`yinlari). **Ko`pkori** leksikasi, xususan, terminologiyasi hozirgacha o`rganilmaganligi endi uning evfemikasini tadqiq qilishni ham birmuncha qiyinlashtiradi, albatta.

Ko`pkori (lug`atlarda **ko`pkari** shaklida - noto`g`ri kirib qolgan) o`zbekcha **ko`p** va tojikcha **kori** elementlaridan yasalgan atama bo`lib, ko`pning ishi, ko`pchilik bo`lib ijro etiladigan tadbir ma`nosidadir (qozoq tilidagi **ko`kbo`ri** ham ko`pkorining buzilgan shakli).

Ko`pkori tushunchasi **bakovul** (aslda bek ovul, ovul boshi, ovul oqsoqoli) va **chavandoz** (aslda turkiy chopgan, chavgon va forsha andoz so`zlarining qo`shilgan, qisqargan shakli) faoliyatidan iborat.

Ko`pkorigacha odatda ot ma'lum muddat (ko`pincha 40 kun) boquvda bo`ladi: *Otingiz boquvdami? Otni boquvdan chiqardingizmi?* savoliga: **boquvda** deyaverish o`rnida, ko`p hollarda, **bog`lovda, tablada, saysxonada, og`ilda, otxonada** kabi nisbiy evfemalari bilan javob beriladi (go`yo boquvda deyish ko`zikish bilan bog`liq). *Otingiz ko`pkori yoki uloq chopishga tayyormi?* savoliga: **bilmasam, sovutayapmiz** (ot sovutishning nozik usullari bor); *Otingiz ko`pkoriga yaramadi, uloq ajratolmadi* gaplari o`rnida **ot yaxshi sovutilmabdi, tobda emas ekan; ot yurolmay qolibdi** gapi o`rnida **otni qiziganda suvlabsiz, oyog`iga suv tushibdi**; *Ot ko`p yem yeb, bo`kib, oyoqlari qaltirab, oqsab qolibdi* gaplari o`rnida **em tushibdi, emlabdi**; *Ot semiz ekan, bekorga ko`pkoriga qo`shibsiz* gaplari o`rnida **xom ekan, xomlabdi**; *Otni ortiqcha jilovlab bo`ynini qaytaribsiz, qiynabsiz, uribsiz* o`rnida **tobgardon qilibsiz** kabi evfemik vositalar qo`llaniladi.

Bu fikrlar Tog`ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida quyidagicha aks etgan: *Bizning Tarlonga suv tushibdi. Otga suv tushishini-ku bilaman. Ot oyog`iga em tushdi degani nima degani? Ot oyog`iga em tushsa, qotib qoladi. Paylari dirillab-dirillab uchadi. Ha-a, har ikkoviniyam ko`pkoriga chopib bo`lmaydi-ya? - Egachi. Ot xomlab qoldi deydi, u nima degani? Unda ot moy tashlaydi. Keyin ko`pkoriga yaramay qoladi. Boqilgan otni bilib-bilmay chopib qo`ysangiz, ot ichida moy to`lib qoladi. Bunday otni-da bir yilgacha ko`pkoriga chopib bo`lmaydi* (200-b.).

**Ko`pkori** va **uloq** tushunchasi ajralmas bo`lganligidan, ko`pkori o`rnida uloq atamasi ham qo`llaniladi (metonimiya): *ko`pkori berdi // uloq berdi; oti ko`pkoriga yaramadi // uloqqa yaramadi* kabi. Ko`pkori bilan bog`liq uloq tushunchasida ham ma`no kengayish yuz bergan: **tana, sarka, taka, buzoq, ho`kiz** ham **uloq** deb atalaveradi: *Uloq keldi. Butidan ko`tarib ko`rdim. Uloq bir tana edi. Oltmish-etmish kilolik uloqni yerdan qanday qilib ko`tarib oldim. O`zim*

*ham sirini bilmay qoldim* (159-b.). Demak, **uloq** atamasi ham nisbatan evfemik ma'no kasb etgan.

Ko`pkorida ot chavandoz - egasi ma'nosida ham qo'llaniladi: *500 chavandoz, 1000 chavandoz keldi o`rnida 500 yoki 1000 ot keldi* deyiladi (metonimiya).

Chorvador nutqida otlar inson kabi nom oladi - laqab bilan ataladi. Ko`pkori vaqtida chavandoz ko`pincha mingan otining laqabi bilan ataydi (metonimiya): *Bakovul qamchisini boshi uzra ko`tardi: Halol! Halol! Chag`ir (ot) tashla,-dedi. Tarlon (ot)niki halol! Tarlonniki halol! Tarlon, ma, haqqing!* (131-b.). *Ay, bakovul! To`riq (ot) chilvir soldi. To`riqning ulog`i harom!* (125-b.). (Chilvir yarim quloch keladigan arqon, ip, chizim; uchi egar qoshiga sig`adigan halqa qilib tugiladi; bir uchi uloqning kezanagidan o`tkazib olinadi. Bunda uloqni tortib olish imkoniyati bo`lmaydi). *Chil (ot) yo`lini chap solib-chap solib chopdi. Chag`ir Chilga yaqin ham borolmadi. Chag`ir armonda qoldi* (125-b.). *Ayniqsa, Tarlon uloqni bakovulga bergisi kelmadi* (119-b.). *Halol! Saman (ot)niki halol! Tashla, Saman, tashla! E, barakalla-e, Saman. Haqingni ol! Saman uloqni erga tashladi* (118-b.) (Misollar Tog`ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" romanidan).

Yuqoridagi gaplarda inson (bu yerda chavandoz) faoliyatining ot faoliyatiga ko`chirilishi, chavandoz nomining ot laqabi bilan atalishi ham evfemik ma'no ko`chishning o`ziga xos original metonimik usullaridan biridir. Yana bir misol: *Birodarlar Tarlon g`ayrat qildi. Yana ikki marta uloq ayirdi. Shunda g`uj odamlar orasidan kimdir birov ovoz berdi: -Tarlon! Bu yoqqa bir qarang! -dedi* (119-b.).

Ko`pkorining ham boshi, davomi, oxiri bo`ladi. Ko`pkori ko`pincha bakovulning quyidagi odatiy talabi bilan boshlanadi: *O...o... o..., chavandozlar-ov! Gapimni o`ng qulog`ing bilan-da, chap qulog`ing bilan-da eshitib ol! Chilvir solma-bir! Bir-birovingni yomon gap bilan so`kma-ikki! qamchi solma-uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot solma-to`rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber-besh! Ol, ha-ol!!* (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom", 117-b.). Bu: 1) kimki tartibbuzarlik, g`irromlik, vijdotsizlik qilsa; 2) uyat so`z bilan haqorat qilsa; 3) qamchilashsa, urisa; 4) chavandoz yiqilganda, uni otga bostirsa; 5)

qochgan otni ushlab olishdan bosh tortsa, unday chavandoz jazolanadi, ko`pkoridan haydab yuboriladi degan fikrning evfemik matnidir.

Ko`pkoriga qo`yiladigan boyluk (ot, tuya, oltin, pul, gilam, mashina kabi)ning umumiy evfemik atamasi **zot, haq, sovrin** so`zlaridir: *Tarlon ketma-ket ikki zot ayirdi. Shunda bakovul yana zotni oshirdi (117-b.). Chavandozga uzib ajrata olmagan bo`lsa-da, zot berildi (119-b.).*

Odatda, ko`pkori davomida bakovulning **Halol! Harom! G`irrom! Bo`ldi! Bo`lmadi! Bekor!** degan xitobi yangrab turadi. Uloqni to`da (200,500, bundan ko`p yoki oz ot) ichiga kirib olib chiqqan, besh va undan ko`p metr chamasi to`dadan uzoqlashgan chavandozga nisbatan: **Halo-o-ol!! Bo`-o`l-di-i-i!;** Aksincha, to`dadan olib chiqib ajrata olmagan, tushirib qo`ygan chavandozga nisbatan: **Haro-o-om!** xitoblari yangraydi.

Misollar: *O`zim Samadning Chetgir (o`zi to`daga kirib, uloqni yerdan ko`tarib olib chiqolmaydigan, biroq olib chiqilgan uloqni chetda turib ilib ketadigan ot va chavandoz chetgir deyiladi) ko`k samanini mindim. Yo`ldosh uloqni halol olib ketdi. Yo`ldosh chavandozga halaqit qilmadim, oshiga sherik bo`lmadim...qo`o`yib yubor, haqning yarmini beraman deb shivirladi (127-b.). Bakovul: Beko-o-o-or! Chilniki beko-o-or! dedi (134-b.). Chil bu safar uloqni dangal tashladi: Halo-o-ol! Ha-lo-o-ol! degan ovoz yangradi (127-b.). Ay, bakovul, To`riq chilvir soldi! Haro-o-o-om! To`riqning ulog`i haro-o-om! (125-b.). Tarlonniki halol! Tarlonniki halol! Tarlon, ma haqing (125-b.).*

Ko`pkorida bir udum bor: uloq maydon chetidan kattaroq o`choqday qazib qo`yilgan chuqurga olib borib tashlanishi kerak. Shu chuqur **qoraliq** deyiladi. Qoraliq qo`ymoq esa bir yirtim qizil mato bayroqcha qilinib, chuqur chetiga qadab qo`yilishidir. Demak, **qoraliq qo`yiladi** gap zot ajratishning eng mashaqqatli usulidir degan tushunchaning evfemasidir: Chavandozlar! *Endi qoralik qo`yaman! Mana! dedi bakovul (T.Murod "Ot kishnagan oqshom", 132-b.).*

**Eshitmadim demanglar! Oxiri!! Olgan-olganniki! Ustida katta zoti ham bor!** (keyin ular aniq aytib boriladi) xitoblari ko`pkori tamom bo`ldi, uloqni kim ajratsa, o`ziniki tushunchasining evfemik simbolidir. **Oxiri** (ajratilgan mol-uloq)

ot yoki chavandozning shuhrati - g'alaba ramzi. Hatto, ayrim kasallik, ziyon-zaxmatlardan xalos bo'lish, tug'mas ayollarning tug'ishi bilan bog'liq "oxiri" go'shtidan yeyishga intilish odati ham mavjud. Oxirida bakavulning: **To`yi-to`yiga ulashsin, to`y sohibining topgani to`yga ketsin, boshi to`ydan chiqmasin** degan (to`yning ham, ko`pkarining ham tugaganligini anglatuvchi) evfemik duoi olqishi, evfonik nidosi yangraydi.

Umuman, ko`pkori va shu kabi xalq o`yinlari bilan bog'liq marosimlar va udumlar leksikasi, shuningdek, evfemik vositalari alohida ishlanishi kerak.

Demak, evfemizmlar xalqimiz uchun nutq madaniyatini oshirish manbalaridan, ko`rkam va jozibador nutq irod qilish vositalaridan biri bo`lib qolaveradi.

## 2.EVFEMIK MA'NO MEZONI VA KO`LAMI

Mazkur qo`yilgan masala bo`yicha evfemik ma`noning evolyuuiyasiga doir ayrim fiklarni yuritishga harakat qildik.

Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanadi. Yangi odob-axloq, yangicha dunyoqarash normalari asosida evfemik vositalarning yangi formalari oldingisiga nisbatan yanada qulay, so`zlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq bo`lgan vositalar shakllanadi. Biroq, inson o`z ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik go`zal, nozik, beozor ma`no ifodalamasin, u tabu tushunchaning mohiyatini xotiradan butunlay bartaraf qilolmaydi. Masalan, *nomusiga tegibdi, tajovuz qilibdi, zo`rlabdi, qo`shilibdi, aloqa qilibdi, yaqinlashibdi* evfemalari o`sha uyat so`zni... va u orqali anglashilgan tushunchani yopolmaydi. Shu bois, tabu tushunchalarni evfemalashtirishga moyillik, talab, ehtiyoj borgan sari kuchayib boraveradi. Bu jarayon evfemik ma`no qatlamining – evfemik sinonimlarning shakllanishiga sabab bo`ladi [13,14].

Evfemiyaning yondosh hodisalarga munosabati masalasi yo`l-yo`lakay ba`zi olimlar e`tiborini jalb etgan. Evfemik vositalarning omonimiya, polisemiya, sinonimiya bilan aloqadorligiga doir ham bilvosita aytilgan yaxshi fikrlar mavjud [20].

Biroq turkiyshunoslikda olimlarimiz ta'kidlaganlaridek, ko'chim asoslari, usullari bilan bog'liq munozaralarga hali chek qo'yilmaganligi, ularning lingvistik va adabiyotshunoslik aspektlari etarli o'rganilmaganligi uslubiy tadqiqotlar olib borishni yanada qiyinlashtiradi. Shunga qaramay, ishda evfemiyaning umumiy va xususiy tomonlarini ochishga, ularga mezon va chegara belgilashga harakat qilindi va **evfemiya tasviriy vositalarining alohida turi** sifatida bayon etildi. SHuningdek, evfemik ma'no mundarijasini obrazlilik, ekspressivlik, emoçionallik, satira va yumorlilik, funkçional-uslubiy bunyodkorlik, odob va axloqiy normativlik kabi konnatat ma'nolar tashkil qilishi yoritildi va quyidagi umumiy ta'rif keltirildi: **ayb, uyat, hayosizlik yoki qo'pol, dag'al, haqorat so'kish hisoblangan; qo'rqinch, dahshat, g'am, alam, iztirob, motam, o'ch, dard, hasrat ifodalaydigan; kishiga malol keladigan, o'ksitadigan, izzat-nafsiga tegadigan, hurmatsizlik, mazax, masxara, kamsitish, o'kinch ifodalaydigan; biror shaxs yoxud davlat arbobi, davlat siyosati yoki o'g'rilik, xiyonat, jinoyat kabilar bilan bog'liq ayb-nuqson, sir-asrorlarni oshkor qiladigan kishida ko'ngilsizlik, umidsizlik, tushkunlik ifodalaydigan; aksincha, nafrat, qahr-g'azab qo'zg'atadigan; umuman, ochiq aytilishi noo'rin, noqulay, madaniyatsizlik, odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan voqeliklarning xotirada salbiy ta'sirini yumshatish, kamaytirish, yopish, yashirish, mumkin qadar, beozorroq tusga kiritish, tasviriy evfonik uslubda bayon etish, tinglovchiga hissiy ta'sir etish – hayajon uyg'otish va shu bilan nutqiy mukammallikka- go'zallikka- til madaniyatiga erishish uchun qo'llaniladigan vositalardir.**

Tilshunoslikda evfemiyaning emas, uslubiyatning til sathiga munosabati haqida yaxshi fikrlar mavjud. Masalan, I.Toshaliyev "Stilistika boshqa lingvistik fanlardan farqli til tuzilishining barcha yaruslarini o'rganadi... Stilistik normalar til sohalari yaruslari bo'yicha belgilanmaydi", deydi va bu fikrlar G.O.Vinokur, A.N.Gvozdev, R.A.Budagov, A.M.Muxinlar tomonidan ham ilgari surilganligini ta'kidlaydi. Metafora konstrukçiya, hatto, so'z ham emas, balki semantik funkçiyadir, deya tilshunoslarimiz ilgari surilgan fikr juda o'rinli keltirilganki, bu boshqa turdagi majoziy vositalarga ham tegishlidir. Chunonchi, evfemiya ham

semantik-funksional hodisa bo`lganligidan, tilning biror sathida yashay olmaydi – u nutqda “tirik”, uning ma’no-mundarijasi muayyan nutqda reallashadi.

Evfemik vositalarning (EV) shakllanishiga asos bo`ladigan obekt – bu tabu tushunchalardir, ya’ni aytilishi man etilgan so`z va iboralar.

Bunda obekt – denotat (real), **evfemik vositalar – konnotat ma’no ifodalaydi.** Har bitta obekt bir va undan ortiq evfemik vosita (sinonim)larning shakllanishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Masalan, “o`lmoq” tushunchasining, “sevmiq”ning , “bo`g`oz”ning , “xotinim” so`zining, ”erga tegaman”ning, “go`r”ning, “ko`mmoq”ning, “qari”ning, “hojatxona”ning, “aroq”ning, “pora”ning , “aroq ichmoq”ning bir necha evfemik vositasi mavjud va bu narsa aniqlanilgan. Umuman olganda insonning ishqiy-intim, nikoh va oila qurish, jinsiy aloqa faoliyati, axloqsizlik, jinsiy va jismoniy nuqsonlar, udum, urf-odat an’analari, uyat a’zolar va ular bilan bog`liq kiyim nomlari, ovqat hazm qilish (dissimilyatsiya) jarayoni, ichkilikbozlik, poraxo`rlik, salbiy, jinoiy harakatlar, haqorat, so`kish, o`lim, motam, aza marosimi, er va xotinning bir-birlariga hamda qarindosh urug`lariga, notiqning tinglovchiga murojaati, yoki buyuk shaxslarga iltifoti, xudo, payg`ambar va avliyolarga iltijosi, ilohiy muqaddas joy va mamlakat nomlari kabi tabulashtirish bilan bog`liq tushunchalarning evfemik vositalari va ularning qo`llanish doirasi, nutqiy xususiyatlari o`zbek tilshunosligida juda ko`p ilmiy izlanishlarning bayon obekti bo`la olgan. Tilning keyingi taraqqiyotida evfemiyaning o`rganish obekti ham kengayib, tarmoqlanib, tasviriy vositalari boyib borgan. Biz quyida evfemik vositalarni semantik jihatdan guruhlashga va ularning ifoda usullarini bayon qilishga harakat qilamiz.

### **3.EVFEMIYANING SEMANTIK TASNIFI VA IFODA USULLARI**

Evfemik vositalar quyidagi asoslarda tasnif qilindi:

**1. Voqelikning tabulashish darajasiga ko`ra.** Bunga: 1) nomini aytib bo`lmaydigan tushunchalar: a) insonning uyat a’zolar nomi; b) jinsiy aloqa jarayonlari; v) so`kish, haqorat bilan bog`liq evfemalar; 2) qo`rqinch, noxush, sovuq xabar (masalan, o`lim) bilan bog`liq evfemalar; 3) voqelikning nomini aytish mumkin-u, biroq nutqiy odob taqozo qilmaydigan tushunchalar o`rnida: a)

oila a'zolari nutqida; b) ishxona va jamoat joylarida; v) notiqning murojaatlarida qo'llanadigan evfemalar kiradi. Masalan, xotin- qizlarning fiziologik holatini ifodalovchi *bo'g'oz, qornida bolasi bor* kabi so'z va iboralarni ishlatish ancha noqulay. SHuning uchun ularning o'rnida *ikkiqat, og'iroyoq, homilador, boshqorong'i, dujon, yukli* kabi evfemizmlarni ishlatish nutqni madaniylashtiradi, so'zlovchini noqulaylikdan qutqaradi. Yoxud *hayotdan ko'z yumish, vafot etish voqeasi* turli yoshdagi shaxslar tomonidan turlicha etkaziladi va bunda ham emfatik vositalardan foydalaniladi. Manbalarga murojaat etaylik:

1. O'.Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari. 50 yoshlardagi kampir nutqi:

*Bir mahal oyimning piqillab yig'layotganini eshitib, boshimni ko'tardim. U ro'molining uchini yuziga bosganicha hiq-hiq yig'lar edi.*

*- Bu dunyoga kelib nima ko'rdi bechora, - dedi titroq lablarini tishlab, odamzodning holi shu-yu, qadri yo`q.*

2. Ch.Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» asaridan. 40 yoshlardagi madaniy saviyasi pastroq o'qimagan ayol nutqi:

*- Nima gap tinchlikmi ?*

*- Kazangap o`lib qoldi.*

*- Qachon ?*

*- Yaqindagina. Shunday kunda o`ladi, deb kim o`ylabdi. Qanday mo`min qobil odam edi-ya! Ko`zi ochiq ketdi dunyodan. Yopib qo`yishga ham odam topilmabdi-da,- zorlanib yig`lardi u.*

3. O'.Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari. 7 yoshlardagi qiz bola nutqi.

*- Urre! Katta adam jevachka obkeldila!*

*U qo`limdan saqichni yulqib oldi-yu, kutib turgan o`rtog`i tomonga yugurdi. 5-6 qadam nariga borib to`xtadi-da, bir nima esiga tushgandek orqasiga qayrilib qaradi:*

*- Katta ada, buvim o`ldila ... - dedi ko`zlarini pirpiratib.*

4. O'.Hoshimov "Nurli dunyo" asaridan.

*- Uyda kim bor? - dedi tomog`ini bo`g`ib kelayotgan allaqanday sho`rtang bir narsadan nafasi qaytib.*

- *Adam yo`qla, - dedi qizcha hamon uning bo`ynini qo`yib yubormay. – Endi adam o`lalla-a.*

*Qizaloq bu gaplarni ko`zlarini katta-katta ochib shu qadar ishonch bilan aytdiki, SHerzod seskanib ketdi.*

- *Unaqa dema! Ertaga adang keladi. Senga-chi, kattakon qo`g`irchoq obkeladi.*

- *Y-o`-o`q, - dedi qizaloq bosh chayqab. – Men bilaman, adam o`lalla!*

5.O`Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asaridan.

*Ertalab ishga ketgan dadam yarim yo`ldan qaytib keldi. Ukamni tizzasiga o`tkazib choy ichirayotgan oyim hayron bo`lib dadamga qaradi:*

*-Tinchlikmi?*

*Dadam negadir ko`zini yashirdi:*

*-Odamzodning ahvoli shu ekan-da, - dedi xo`rsinib. – Habiba buvi omonatini topshiribdi.*

**2.Ta'sirchanlik, bo`yoqdorlik darajasiga ko`ra** evfemizlarning individual va okkazional formalari ajratilishi mumkin va ular badiiy uslubning tasviriy, jumladan, evfemik vositasi bo`lib xizmat qiladi. Masalan, **Qo`shgani bilan qo`sha qarisin** evfemasiga nisbatan **Bir qizga ikki bor yor-yor bo`lmasin** (M.Yusuf) okkazional evfemasi g`oyat nafosatlidir.

**3. Evfemik tagma'noli (presuppozitiv) gaplar** alohida xususiyatga ega. Bunda gap orqali odatdagi mazmun emas, uning semantikasida boshqa bir fikr – tabu tushuncha yashiringan bo`ladi. Anglatilishi kerak bo`lgan mana shu tagma'noga kinoya, qochiriq, kesatiq kabi vositalar yordamida ishora qilinadi. **Eri: Ular pokdomon, undagi odamlar hammasi hoji! Xotini: Ha, o`laqolsin, Hoji odam emasmi?! (A.Q.) Sevgi Tohirning sandig`ida suvga cho`kib ketgan** (“Saodat”) gaplarining evfemikligi “hojilar ham jinsiy aloqa qiladi-ku!”, “sevgi yo`q yoki o`lgan” tushunchalarini “yopib” ifodalashidir.

Umuman, evfemik ma'no ifodalashning bu usuli va shu hodisa bilan bog`liq bilvosita masalalar, chunonchi, presuppozitsiya – tagma'noli gaplar ayrim olimlar tomonidan juda chuqur yoritilgan.

Ma'lumki, soʻzning borliq, olamdagi biror predmet bilan, voqea-hodisa bilan, belgi bilan, miqdor bilan, harakat-holat bilan, jarayon bilan bogʻliq boʻlgan maʼnosi – leksik maʼno deyiladi.<sup>1</sup> “Olma” soʻzining borliqdagi meva bilan bogʻlangan maʼnosi – leksik maʼno hisoblanadi. Soʻzning leksik maʼnosi umumlashma boʻlib, inson ongidagi tushunchalarga ishora qiladi. SHuning uchun nutqda turlicha tushunchalarni yuzaga keltiradi. Soʻzning muayyan nutqiy sharoitda olgan maʼnosi tagmaʼno, tagbilim,<sup>2</sup> qoʻshimcha informatsiya,<sup>3</sup> presuppozitsiya,<sup>4</sup> yashirin maʼno nomlari ostida izohlanmoqda. Bu hodisa qanday nom ostida tadqiq qilinmasin, gapning turli xususiyatlarini toʻgʻri talqin etishda juda katta ahamiyatga ega. U soʻzlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimlari asosida belgilanadi. Muayyan nutqiy sharoitda gapning roʻyobga chiqishiga hamda toʻgʻri tushunilishiga yordam beradi. SHuning uchun tagbilim gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi, “bilishning umumiy xazinasini”, “oldindan bilishning jami” tarzida izohlanmoqda. Bitta gapda bir qancha tagmaʼnolar, yaʼni soʻzning leksik maʼnosi ostida yotuvchi maʼnolar mavjudki, ular turli nutqiy jarayonlarda roʻyobga chiqadi. Masalan: *Ahmadning toʻngʻich oʻgʻli Karim Andijondan Toshkentga oʻqishga ketdi.* Bu gapdan bir qancha hukmlarni tushunishimiz mumkin. Ular gap tarkibidagi soʻzlarning ishoraviy maʼnolari asosida yuzaga chiqqan. Ular quyidagilar:

1. Ahmadning farzandlari bir nechta
2. Karim Ahmadning eng katta oʻgʻli
3. Ahmadning Karimdan boshqa oʻgʻillari ham bor
4. Karim oʻrta maktabni tugatgan
5. Karim talaba
6. Ahmad – ota, erkak
7. Karim – oʻgʻil, erkak.

Bu hukmlarning tabiiy asosi boʻlib, ular xilma-xil ishoralar majmuasidan iboratdir. “Ahmadning farzandlari bir nechta” hukmiga “toʻngʻich” soʻzi ishora

<sup>1</sup> Қаранг: М.Мирзаев ва бошқ. Ўзбек тили. Тошкент, 1975 йил; Ш.Шоабдурахмонов ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980 йил, Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Тошкент, 1975.

<sup>2</sup> Н.Махмудов. Пресуппозиция ва гап. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 6-сон. Тошкент, 1986 йил, 28-бет.

<sup>3</sup> О.Бозоров. Юклама категорияси. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2-сон. Тошкент, 1972-йил, 27-бет.

<sup>4</sup> А.Нурмонов ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1992 йил, 113-бет.

qilayapti. “To`ng`ich” so`zining ma`nosi – eng katta, “bosh farzand” kabilar bo`lib, Ahmadning farzandlari bir nechta erkakligiga ishora qilinmoqda. Bunday ishoraviy ma`noni umumiy bilimlarimiz xazinasini orqali tushunamiz.

So`zlarning ma`nodoshlik, shakldoshlik, ziddoshlik kabi xususiyatlari orqali ham tagma`nolar yuzaga keladi. “Toza” so`zining nutqiy ma`nosi asosida “kirlik” tushuniladi. Adolat yotoqxonani tozaladi. (A.Muxtor) gapida “toza so`zining ishorasidan “yotoqxonaga iflos” degan hukm tushuniladi. *Juman ko`ylagini qumga yoyib quritdi* (A.Muxtor) gapida ham “*Jumanning ko`ylagi ho`l edi*” degan hukm gapning mazmunidan tushuniladi. Bu hukmning yuzaga kelishiga gap tarkibida ishtirok etayotgan “quritmoq” so`zining ishorasi asos bo`lgan. Ammo “quritdi” “quritmadi” tarzida ifodalansa ham “ho`llik” tushunchasi anglashilaveradi. Chunki ziddoshlik xususiyati asosida ikkinchi qarama-qarshi ma`no umumiy bilish xazinamizda bo`lganligi bunga ta`sir etadi. Natijada oddiy sodda gap orqali ikki hukm ifodalanadi. Bunda birinchi hukm gap tarkibida ishtirok etayotgan so`zlarning sintaktik (o`zaro ma`no va grammatik bog`lanishi – ketma-ketligi) jihatdan bog`lanishi asosida yuzaga chiqsa, ikkinchi yashirin hukm gapda ishtirok etayotgan biror til birligi yoki mantiqiy birlikning ishorasi orqali tushuniladi. Buni tilshunoslikda tagma`no deb atashadi. Tagma`no xilma-xil ishora vositalari orqali anglashiladi. Bu vositalarni dastlab quyidagicha ko`rsatish mumkin:

1. Lisoniy (til xazinasidagi turlicha hodisalar, so`zlar, qo`shimchalar, yordamchi so`zlar, iboralar, sintaktik butunliklar) vositalar.

2. Mantiqiy (mantiqiy mushohada asosida) vositalar.

3. Lisoniy bo`lmagan (til tuzilishiga kirmaydigan, lekin nutqni bevosita va bilvosita kuzatib boruvchi) vositalar, tagma`no gapning mazmuniga mutanosib tarzda anglashiladi. Shuning uchun tagma`no anglashilgan gaplar shakl jihatdan sodda bo`lsa ham mazmun jihatdan murakkab bo`ladi. Boburning quyidagi baytidagi tagma`noni ko`rib o`tsak, yana ham tushunarli bo`ladi:

*Sochini savdosi tushti boshima boshdin yana,*

*Tiyra bo`ldi ro`zg`orim ul qaro qoshdin yana.* Bu baytda quyidagicha ochiq-aniq hukmlar bor:

1. Boshimga sochining savdosi boshidan tushdi.
2. Ro`zg`orim ul qaro qoshdin qora bo`ldi.

Bayt tarkibida “yana” yuklamasi yashirin hukmlarga ishora qilmoqda. Shuning uchun gap mazmunidan quyidagicha tagma’no anglashiladi:

1. Sochining savdosi avval ham boshimga tushgan.
2. Avval ham ro`zg`orim ul qaro qoshdan qora bo`lgan.

Bunday yashirin hukm bayt tarkibidagi “yana” yuklamasining tagma’nosi asosida tushuniladi. Natijada bayt mazmunan murakkablashib, sodda shakl orqali murakkab mazmun yuzaga chiqqan. Mazmuniy murakkablikni lisoniy vosita – yuklama paydo qilayapti. SHuning uchun lisoniy tagma’no deyiladi. Mirzo Bedilning quyidagi ruboiysida tagma’no ko`pma’nolilik, ma’nodoshlik, shakldoshlik hamda ziddoshlik hodisalari asosida anglashilib, mazmuniy murakkablikni hosil qilgan:

Dili hasad to`la, ichi qoralar,  
Doim tuhmat ila pokni qoralar.  
SHip burchiga oppoq paxta ilib ko`r,  
SHamdondan barcha ne shunga o`ralar.<sup>1</sup>

Bu ruboiyda quyidagicha ochiq-aniq hukmlar mavjud bo`lib, ular bevosita gap tarkibida ishtirok etayotgan so`zlarning ma’no va grammatik bog`lanishlari orqali ifodalangan:

1. Dili hasad to`la ichi qoralar doim tuhmat bilan pokni qoralaydi.

2. Ship burchiga oppoq paxta ilib ko`rgin, shamdondan barcha is shunga o`raladi. Baytlardagi “qoralar” so`zlari shakldoshlik asosida munosabatga kirishgan. Birinchisi “rang”ni bildirib, otlashgan holda odam ma’nosida qo`llangan. Bundan tashqari “ichi qora” so`zi “pok” so`zi bilan shakldoshlik munosabatida ma’no ifodalamoqda. Ikkinchi baytdagi so`zlar o`zaro shakl va ma’no munosabatdorligi jihatidan mazmunan birinchi baytdagi so`zlarga *paxta – pok* so`ziga, *is - qora* so`ziga ma’nodosh hisoblanadi. Ana shunday murakkab munosabatdorlikdan turlicha tagma’nolar yuzaga kelgan. Ularni quyidagicha belgilash mumkin:

---

<sup>1</sup> 333 рубоий. 70-бет. Тошкент, 1991 йил

1. Dili pok odamlar boshqalarni qoralamaydi.
2. Ship burchiga qora paxta ilinsa, unga o`tirgan is bilinmaydi.
3. Dili hasad to`la, ichi qora odamlar isga o`xshaydi.
4. Dili pok odamlar huddi paxta singaridir.

Baytning tagma`nolari, turli lisoniy va mantiqiy ishora vositalari orqali umumiy bilish xazinamiz ko`lami asosida tushuniladi. Garchi bu tagma`nolar matnda – baytda shakliy ifodalanmasa ham, biz matndagi turli ishoralar vositasida anglaymiz. Shuning uchun ham “yashirin ma`no” yoki “yashirin hukm” nomlari ostida talqin etiladi.

Xullas, so`zlar muayyan nutqiy sharoitlarda so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi o`zaro aloqadorlikdagi shartnomaviy munosabat asosida xilma-xil tagma`nolar anglatib kelib, o`zi ishtirok etayotgan gapni ham mazmuniy, ham mantiqiy murakkablashtiradi. Mazmuniy murakkablikni turlicha vositalar yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vositalar lisoniy va lisoniy bo`lmagan vositalarga ajratiladi. Lisoniy vositalarga til tuzilishiga kiruvchi asoslar kirsar, lisoniy bo`lmagan vositalarga til tuzilishiga kirmaydigan, lekin lisoniy birliklarni nutqiy jarayonda bevosita kuzatib boruvchi asoslar kiradi.

**4. Faollik darajasiga, til evfemik qatlamini shakllantirishdagi rolga ko`ra** ritorik va olmoshli evfemalar alohida ajralib turadi:

**Ritorik gaplar** tantanali ohang, emfatik urg`u bilan kuchaytirilganligi va unda his-hayajon (ekspressiya, emojiya) ifodalanganligidan nutqiy figura sifatida xizmat qiladi. Ritorik gaplar aytilishi noqulay bo`lgan voqeliklarni yashirin, yopiq holatda, yumshoq, poetik holatda bayon etadi. Masalan, **Usta Jaloliddin aybsiz edi, u bekorga o`ldirilibdi** gapi (denotati) o`rnida **“Gunohi ne erdi u tilla boshning?! Gunohi ne erdi porloq quyoshning?!”** (I.Sulton, Uyg`un) ritorik gaplari evfemik vosita sifatida qo`llanilgan.

Xususan, evfemik ma`no ifodalashda **olmoshli gaplar** muhim ahamiyat kasb etadi. Ular aniq tushunchani emas, ishora qiluvchi, mavhum belgi ifodalashini M.A.Asqarova ham maxsus ta`kidlaganlar.<sup>1</sup> Olmoshning ana shu

---

<sup>1</sup> Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980. -290-б.

xususiyati voqelikni aniq formada, nutqiy odob normasida bayon etish imkoniyatini beradi.

Ming turli xayollar bag`rim etdi chok,

Lekin men uni qilgim kelmadi halok.

Oh, **u** qanday muhtoj edi onaga,

**Uni** tashlab ketdim etimxonaga.

Sh. Salimova misralarida *uni* olmoshi homila, *u*, *uni* olmoshlari chaqaloq tushunchalarining evfemik vositasi.

Shuni alohida aytib o`tish kerakki, nutqda murojaat shakllarining bir ko`rinishi - “sen” va “siz” olmoshlarining qo`llanilishida hududiy farqlanishlar kuzatiladi. Chunki o`zbek tilida “sen/siz” shakllari nutqiy odat me`yori bilan bog`liq bo`lib, “siz” olmoshi shaharliklar nutqida qishloqliklar nutqiga nisbatan, vodiqliklar nutqida respublikamizning boshqa viloyatlaridagilar nutqidagiga nisbatan ancha faol qo`llanadi. O`zbekistonning hamma hududlarida bobo, buvi, ota, ona, amaki, amma, tog`a, xola, aka, opa kabi katta yoshli tinglovchilarga sizlab, nabira, farzand, jiyan, uka, singil singari kichik yoshdagi tinglovchilarga asosan senlab murojaat qilish kuzatiladi. SHuningdek, ayollarning o`z umr yo`ldoshlariga “siz” deb murojaat qilishlari belgilangan me`yor bo`lib, “siz”ning “sen”ga aylanishi o`zbek nutq odatining qo`pol buzilishidan dalolatdir:

“Er: - Namuncha, avval suyunchi bersangiz-chi, yaxshi hovli topib keldim. Ertaga ko`chamiz!

Xotin: - Ko`chmayman dedim, ko`chmayman! Ko`chsang, o`zing ko`chaver, katta ko`cha!” (T. Po`lat).

Erlarning xotinlarini senlash yoki sizlashlarida hududiy tafovutlar ko`rinadi. Jumladan, shaharlarda (Farg`ona vodiysining ko`pgina qishloq joylarida ham) yashovchi o`zbek erlarning aksariyati turmush o`rtoqlariga “siz” deb murojaat etsalar, O`zbekistonning turli hududlaridagi qishloqlarda yashovchi erlar xotinlarini senlab gapiradilar. Shaharlik o`zbeklar muloqot xulqiga xos bunday odat boshqa millat vakillari tugul, hatto qishloq sharoitida yashovchi shu millatga mansub kishilarning o`zlariga ham erish tuyulishi mumkin. Sirdaryo tumanlik Abdurazoq Burliyevning “Jufti halolingizni sizlaysizmi?” sarlavhali maqolasidan

olingan quyidagi parcha fikrimizni quvvatlaydi: "...yo`lim tushib, Baxt shahridagi korxonalarining birida ijodiy safarda bo`ldim. O`sha kuni korxonada ilg`or ishchilaridan biri bo`lgan Ahmadjonlarnikida mehmonda bo`ldim. Oiladagi o`zaro totuvlik, samimiylikdan mamnun bo`ldim. Shu bilan birga bir narsaga e`tibor berdim: er-xotin bir-birini "siz"lab gaplashishar ekan... Aksariyat shahar joylarida bo`lganimda oilada erlar xotinlarini "siz"lashini kuzatganman. Go`yo shaharda bu "moda"ga aylanib qolganday. Biroq, fikrimcha, turmush o`rtog`ini "sen"lab gapirgani maqsadga muvofiqday...".

Sirdaryolik gazetxon uchun erlarning xotinlarini "sen"lab gapirishlari me`yor sanalsa-da, ammo O`zbekistonning aksariyat shaharlarida (Farg`ona vodiysining ko`pgina qishloqlarida ham) yashovchilar uchun bu odat me`yor sanalmaydi. Chunki vodiya, ayniqsa, Marg`ilon shahrida, nafaqat turmush o`rtoqlarini, balki farzandlarini ham sizlab gapiruvchi otalar ko`plab topiladi.

**5.Ifoda usuliga ko`ra** evfemik materiallar: 1) **verbal vosita (VV)**; 2) **noverbal vosita (NV)**larga ajratiladi. Evfemik ma`no ko`p hollarda NVlar orqali ifodalashni taqozo qiladi. Noverbal evfemik nutq odatda, ixchamlik, tejamkorlik - til iqtisodi; kontekst va nutqiy vaziyat talabi qonunlariga asoslanadi. Noverbal evfemik vositalar impliuit, kinetik ifoda turlariga ajraladi. Impliuit ifoda usuli ko`proq kontekstga (yozma nutqqa) asoslanadi. Bunda pressupoziuiya, ellipsiya, intonaiiya – sukut, to`xtam kabi hodisalarga e`tibor beriladi. Impliuit ifodada ko`pincha tabulashtirilgan voqelikning evfemik vositasi real qo`llanilmaydi, biroq ular zamiridagi tushunchalar kontekst va intonaiiya (ohangning birdan kesilishi, tugallanmaganligi, sukut, davomlilik kabilar) orqali anglashilib turadi. Bunda: a)gapning tuzilishi o`zgaradi: to`liqsizlik, elliptiklashish yuz beradi. Gap mazmunida ham o`zgarish sodir bo`ladi: denotat (his-hayajon, ohangdorlik, subektiv baho) kabi konnotat ma`nolar bilan boyib, figural nutqning shakllanishiga sabab bo`ladi. Masalan, **Odam ham daraxtday gap: o`sadi, unadi, meva beradi, so`ng...** (O.Siyoyev) **G`ofir** (titrab): **Jamila, ko`zimga qara! Sen chindan ham boy bilan...** gaplarida *o`lim va uyat* tushunchasi so`zsiz (yozuvda ko`p nuqta orqali) ifodalangan. Yoxud diqqatingizni boshqa bir parchaga qaratamiz:

Kamol singlisini boloxonaga boshlab chikdi. Yoniga, sim karavotga o` tqazib:

— Gapni qisqa qil, sen nima deysan? — dedi.

— Men bilmayman, — dedi Naima erga tikilib.

— Sening taqdiring hal bo`lyapti-ku, go`dak! Sen bilmay, men bilamanmi? — bo`kirdi Kamol.

— Men bilmayman, — dedi Naima yana.

— Singlim, sharm-hayoning vaqti emas, — deb pastga tushdi Kamol. — Agar **birorta ko`nglingda o`ylaganing bo`lsa**, uni ayt menga. Men hoziroq chiqib rad qilaman.

— Qo`ying, akajon, — dedi Naima.

— Samad oliftaning o`g`li-chi? **Mening sezishimcha...**

— **Yo`q-yo`q...** — so`ng «**Onam...**» deb ming`irladi (Sh.Xolmirzayev).

Berilgan tugallanmagan fikrlar ham noverbal evfemik vosita vazifasini o` taydi, aka va singil suhbatida ayta olinmagan so`zlar bir lahzalik to`xtam orqali ham chiroyli tarzda ifodalangan.

**Kinetik vosita** insonning nutqiy faoliyatini engillashtirishda: nutqiy tejamkorlik va inson energiyasini iqtisod qilish, muomalani etik-estetik nutq talabi darajasiga ko`tarishda muhim ahamiyatga ega. A.Nurmonov ham: “...til kartinasini to`la namoyon qilish uchun nutqning yordamchi vositalarini o`rganuvchi paralingvistikani fan sifatida tadqiq qilish va amalda qo`llash zarurligini o`rinli uqtirgan”[12].

Ba`zi manbalarda nutqning tabriklash va xayrlashish, ta`kid va kuchaytiruvchi, ekspressiv va tasviriylik anglatuvchi noverbal vositalari bayon etiladi-ki, bu ishoralar ham o`rni bilan evfemik vosita bo`lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, voqelikni ifodalashda ba`zan verbal evfemik vositalar “ojizlik” qiladi. Muayyan nutqiy vaziyat so`zlovchi va tinglovchini qanoatlantirolmaydi. Bunday hollarda noverbal vosita (kinetik) yordamga keladi.

Verbal nutq evfemik ma`noni leksik-semantik ko`chimlar, nutqiy figuralar yordamida ifodalasa, noverbal nutq imo-ishora, mimika, jistikulyatsiya, suhbatdoshning harakati, manerasi, nutqiy vaziyati, intonatsiya va uning unsurlari bilan bog`liq namoyon bo`ladi. Umuman aytganda, noverbal evfemik vosita

verbal nutq oqimida – til bazasida shakllanuvchi, harakat qiluvchi yordamchi omildir.

*Viloyatga safarga chiqqan hukumat rahbari Rahimov va Ichki ishlar vaziri Luqmonovlarni kuzatish tantanasi. Bular atrofida o`nlab rahbarlar parvona. Shulardan biri respublikaga dovrug`i taralgan sovhoz direktori Mirvali. Luqmonov uchrashishdan bir soat oldin Mirvaliga: “Bo`yningdan dorga osaman”, degan edi. Jo`nash oldidan Mirvali moment topib, Luqmonovga: - Menga qarang, aka, qandoq qilsam siz aytgan dorga bo`ynimdan osilmayman deydi. Luqmonov javob o`rniga ehtiyot holatda bosh barmog`i bilan ko`rsatkich barmog`ini bir-biriga ishqab ko`rsatdi. – Qancha? Bitta etadimi? Luqmonov yana ovoz chiqazmadi. Uch barmog`ini ko`rsatdi. – Bu ko`p ishorasini qildi. Mirvali birozdan keyin miliyiy boshlig`iga: - Xo`p, narxini ayting, dedi - Siz ayting, dedi general. – Mirvali bitta barmog`ini ko`rsatdi. General ensasi qotganday lablarini burib uchta barmog`ini ko`rsatdi. Mirvali ikkitasini ko`rsatdi. General hamon uchtasini ko`rsatib turardi (S.Ahmad, “Jimjitlik”, 171).*

Ushbu dialogik evfemik matnda tahlikali vaziyat so`m, poraning miqdorini so`z bilan emas, noverbal vosita (qo`l, barmoq, lab, yelka, mimika) orqali ifodalashni taqozo qilgan.

Ayollarga xos bo`lgan, begona erkak oldida yuzini to`sib gapirish harakati oldingi yillar uchun faol sanalgan bo`lsa, davrlar o`tishi bilan bu harakat o`zbek muloqot madaniyatida kam uchraydigan bo`ldi: *Eson Davlat begim suratni qo`lga oldi va Navoiy tasviriga beixtiyor qiziqib: - Yuzlarida farishtalari bor zot ekanlar, - deb qo`ydi. So`ng **harir dakanasining bir cheti bilan yuzini mudarrisdan to`sib, unga yarim o`girilgan holda** dedi: - Mudarris janoblari, bu surat Hirotda shariat peshvolarining ruxsatlari bilan chizilgan-ku. (“Yulduzli tunlar”, 37-bet); Begim ikki shoxali shamdonning shamlarini yoqib, qabrning bosh tomoniga qo`yayotganda kimdir pichirlab tilovat qilayotganini eshitdi. Orqasiga o`girilar ekan, qabrning oyoq tomoniga cho`kka tushgan soqoli uzun mo`ysafidni ko`rdi. Begim **boshiga ko`tarib qo`ygan harir pardani tez yuziga tushirib** cho`nqaydi va tilovat tugaganda mo`ysafidga qo`shilib yuziga fotiha tortdi. (“Humoyun va Akbar”, 358-bet).*

Mazkur matnlar tarkibida keltirilgan noverbal vositalar o`sha davrda ayollar tomonidan qo`llanilgan bo`lib, begona erkak, ya'ni nomahramga yuzini ko`rsatish gunoh ekanligi holatiga ishorani ifodalab kelgan. Adib romanlar leksikasida o`sha davrning muloqot madaniyatini e'tibordan chetda qoldirmagan.

**6. Modal – evfema.** Evfemik ma'no verbal, kinetik vositalar bilangina emas, ma'lum grammatik formalar yordamida ham ifodalanadi [4,21,22,23].

Masalan, **Bu tuhmatlarning tagida biror siyosiy maqsad borligi ehtimoli to`g`risida Prezidentimizning o`zlari ham aytgan edilar** (Oila va jamiyat) gapi -miz, -lar, affiksiz “yalang`och”lanib qolgan bo`lur edi (denotati - ..prezidentning o`zi ham aytgan edi). Holbuki, bunda –miz, -lar gap mazmunini – denotatni hurmat, e'zoz kabi modus, evfonik ma'nolar (konnotat) bilan boyitgan, eng muhimi, gap evfemik xarakter kasb etgan.

Tilshunoslikda 1) **affiksoidlar**, 2) **erkalash-e'zozlash formalari**, 3) **egallik**, 4) **ko`plik**, 5) **kesimlik qo`shimchalari yoki umuman, modal, subektiv baho** formalarining evfemik nutq hosil qilish funkçiyalari “modal-evfema” termini ostida tushuniladi va o`ziga xos xususiyati, chunonchi, evfematik darajasi(nisbiyligi) ta'kidlaniladi.

Kishilarning ma'naviy saviyasi, odob-ahloqi, haqiqiy madaniyligi, oliyjanoblighi va umuman ichki dunyosining qanchalik boy ekanligini uning nutqidan ham ko`rish mumkin. Kommunikantlarga xos ijobiy fe'l-atvor ham ularning nutqida muayyan vositalar asosida yuzaga chiqadi. Xalqimizda “YAxshi topib gapiradi, yomon qopib” degan maqol zamirida ham nutq egasiga xos fe'l-atvorning ijobiy yoki salbiy jihatiga ishora sezilib turadi. Kishi fe'l-atvoriga xos ijobiy xulq, albatta, nutq jarayonida ishtirok etayotgan so`zlar, qo`shimchalar vositasida ham o`zini namoyon qiladi. Ko`pincha ayol kommunikantlar nutqida qo`llanilib, xushmuomalilikni, erkalashni bildiruvchi **aylanay, o`rgilay, qoqindiq, girgitton** kabi so`zlar ham ijobiy fe'l-atvorni ko`rsatadi va chiroyli muloqot amalga oshadi. Misollarga murojaat qilamiz: *Kema chayqalib silkinganida Gavharshod begim barra po`stin kiygan Ulug`bekning baquvvat elkalaridan ushlab muvozanat saqlardi:*

- *Ulug` o`g`lim, to`ng`ich o`g`lim, suyangani tog`imsiz!* – deb Ulug`bekni bolalik paytidagidek erkatalib so`zlardi. O`ng qirg`oqqa kema to`xtagan joyga chindan ham qip-qizil gilam poyandozlar to`shalgandi. Poyandoz chetida xipcha bo`yli novcha Abdullatif momosini ta`zimu tavoze`lar bilan kutib oldi. Gavharshod begim uning egilgan boshini qo`llari orasiga olib: - **Momosi o`rgilsin Latifjondan!** – deb peshonasidan o`pdi. (“Ona lochin vidosi”, 33-bet);

- *Xudo xohlasa, vaqti soati bilan g`arbiy chegaralarni tinchitib, Abusayidga qarshi qo`shin tortgaymiz!* – Iloyo, yaxshi niyatlaringizga eting, **jonim bolam!** Mening endigi **suyangan tog`im sizsiz! Butun umidim sizdan!** Gavharshod begim nevarasini duo qila-qila kuzatib qo`ydi. (“Ona lochin vidosi”, 132-bet);

- **Bo`yniginangdan momang aylansin, mitti polvonim!** Kichik bo`lsang ham, yutding! Bu naqora sadaqa emas, sovrin! Haloling bo`lsin! **CHal!** Bu gaplardan Komron mirzoning rangi bo`zarib ketdi. (“Humoyun va Akbar”, 224-bet)

**7. Argo-simvolik evfema.** Odatda, kakoferizm, vul`garizm, varvarizm, argotizm kabi terminlar ostida o`rganiladigan hodisalar uslubning umumadabiy til normasiga zid qo`yiladi. Bundan qat`iy nazar ular xususiy uslub normasi doirasiga kiradi va nutqda ma`lum maqsadlarda qo`llanib, sotsial mohiyat kasb etadi.

Ba`zi olimlar ham bunday noadabiy til vositalarini vazifaviy nutq uslublariga aloqadorligini uqtirganlar. Tilshunoslikda nutqda salbiy voqeliklarni yumshatish, yashirish, yopish uchun xizmat qiladigan simvolik xarakterdagi noadabiy til vositalari **a r g o – s i m v o l i k e v f e m a** termini bilan ataladi.

Argo-simvolik nutq umumxalq nutqiga xos bo`lmagan, til egalari tomonidan bir xil tushunilmaydigan ma`lum sotsial qatlam yoki kasb-hunar egalari (o`g`ri, qimorboz, chayqovchi, savdogar jinoyatchi, bezori; yoki harbiylar, yuristlar, organ xodimlari, mahbuslar, inqolobchilar, mafiyachilar) ning ma`lum maqsad va manfaatlari uchun xizmat qiladigan xususiy, yashirin muomala vositasidir. Argotik til faqat o`g`rilar tili bo`lmay, u jargon, yashirin nutq (kriptologiya) terminlari bilan ataladigan materiallarni ham o`z ichiga oladi. Argo-simvolik nutqda biror tushuncha yoki voqelik ko`p hollarda o`z nomi, ifoda vositasi bilan emas, boshqa so`zlar, shartli belgilar, simvollar orqali ifodalanganligidan, u

evfemik xarakter ham kasb etadi. Masalan, *Shu kunlarda bir rahbar yozuvchining ishi ko`rilmoqda edi.* (O`.Hoshimov).

Keyingi vaqtlarda argo-simvolik xaraktyerdagi evfemik vositalarning qo`llanish doirasi yanada kengaydi. Masalan, hozirgi huquqshunoslar nutqida **adabini bermoq** (qiynamoq), **mehmon qilmoq** (qamamoq), **usul qo`llamoq, stulga (kresloga) o`tirg`izmoq** (azoblamoq, qiynamoq), **bulbuligo`yo qilmoq, sayratmoq** (zo`rlab aytirmoq), **qo`lga olmoq** (qamoqqa olmoq), **“ov” qilmoq** (qo`lga tushirmoq), **“paravoz”** (bosh jinoyatchi), **to`qmoq** (azoblovchi, uruvchi), **mafiya zanjir** (uyushgan jinoyatchi), **ko`k, ko`k qog`oz** (dollar), **giyoh, giyohmodda** (qoradori, nasha) kabi evfemik vositalar shakllandi: *Menga o`z aybiga iqror bo`lishning ahamiyatini uzoq tushuntirdilar. Aks holda ish bo`yicha meni o`z iboralarini bilan “paravoz” qilamiz dedilar.; Bizning shunday usullarimiz borki, “bulbuligo`yo” bo`lib ketasan. Uni erto`laga olib tushib, bir adabini berib qo`yinglar, - dedi tergovchi.* Bundan tashqari: 1) jinoiy kodeks moddalari bilan qo`llanadigan raqamlar ham evfemik xaraktyerda bo`ladi, undagi raqamlar zamirida noxushlik, qo`rqinch ifodalovchi tushunchalar “yashirin” bo`ladi. Masalan, **97, 169, 210, 242, 246 raqamlari o`g`irlik, poraho`rlik, o`lim jazosi, kontrabanda [18]; yoki 01, 02, 03, 04 raqamlari yong`in, miliu`iya, kasallik, gazlanish** tushunchalari bilan bog`liq simvolik(evfemik) atamalardir; 2) sir tutilgan harbiy qism yoki obektlar evfemalashtiriladi. Bunda **M, N** kabi harflar, raqamlar yoki **“Lochin”, “Burgut”, “Kit”, “Kobra”, “Yer”, “Venera”** kabi ramziy so`zlar ochiq aytilishi man etilgan tushunchaga nom bo`lib xizmat qiladi, 3) harflardan foydalaniladi: konkret ism familiya o`rnida **“A”ismli, “B”ismli shaxs** kabi formalar evfemik vosita bo`lib xizmat qiladi; harflarning arabcha shakli poetik san`at (hurufi dalolat) yaratishda, jumladan, evfemik ma`no ifodalashda ramziy vosita bo`lib xizmat qiladi. Masalan, **Qomating yo bo`lmasingdan**(E.Vohidov) iborasi *qomating bukilib, qarib, yotib qolmasingdan* tushunchalarining evfemik vositasi sifatida qo`llanilgan. Harfiy evfemik tasvir mumtoz adabiyotda, xususan, A.Navoiy asarlarida yuksak darajada o`z aksini topgan.

Argotik evfema, xususan, mahbuslar nutqida ko`p qo`llaniladi. Ular ko`pincha tushunchalarni oshkor aytolmaganliklaridan, o`zaro anglashiladigan shartli belgilar – “so`z”lar orqali ifodalashga harakat qiladilar. Masalan, SHukrulloning “Kafansiz ko`milganlar” asarida sherik o`rnida **keruxa**, “mish-mishlar” o`rnida **parasha**, tintuv o`rnida **shumon**, sotqin o`rnida **stukach**, almashtirish o`rnida **maxnyom**, kamera o`rnida **xata**, qattiq kaltaklash o`rnida **yaponcha massaj**, kirib-chiqib yuruvchi shaxs o`rnida **dubak**, Stalin o`rnida **mo`ylov** kabi so`zlar qo`llanilgan va bular mahbuslarni nutqiy noqulayliklardan, noxush holatga tushib qolishdan saqlash uchun xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, evfemiya adabiy-badiiy adabiyot tili doirasidagina harakat qilib qolmay, u tilning professional noadabiy til qatlamlari bilan bog`liq shakllangan nutqiy hodisalarni ham tekshiradi.

#### **4.EVFEMIK VOSITALARNING FUNKSIONAL-USLUBIY TASNIFI**

Evfemik vositalar nutqda quyidagicha uslubiy funkciya bajaradi:

**1.Obrazlilik funkciyasi.** Evfemik matn nutqda o`zining real mazmuni – denotati bilan emas, muayyan nutq talabi bilan ko`chim asosida shakllangan, subektiv, modal munosabat ifodalagan, tropiy yoki figural ma`nolari bilan namoyon bo`ladi. Mana shu jarayon evfemik nutqning obrazlilikini ta`minlaydi. Masalan,

*Ikki gul bir quchoqda yashnarmidi,*

*Men so`lay, Zaynab bilan qoling begim.*(M.Yusuf) matnida  
*bir quchoq – bir erkak, ikki gul – ikki xotin, yashnarmidi – yasharmidi, men so`lay – men o`lay, Zaynab bilan qoling – Zaynabga er bo`lib qoling, begim erim* tushunchalarining obrazli ifodasidir.

Evfemik nutqning obrazlilik darajasi bir xil emas. U metaforik evfemalarda kuchli bo`ladi. Masalan, **Rus poeziyasining so`ndi quyoshi** (Jukovskiy) metaforik evfemasida obrazlilik yuksak darajada ifodalangan. Yoki diqqatimizni boshqa misolga qaratamiz:

«Men aravadan boshqa ishga yaramaydigan pachoq otday ko`rinsam ham, uncha-muncha chavandoz minolmaydigan uloqchi otman! Uncha-muncha odamni erga chalpak qilaman! Chalpak! Buni bilib, tushunib qo`ying...»

«Tushunib turibman, Arslonbek aka,— dedi Saida yuzida tabassum va so`z ohangi bilan uni qizishmasdan gapirishga da`vat qilib,— lekin uloqchi otlar qamchini ko`rsa, ko`tarib ketar edi...»(A.Q.) Evfemalar til faktiga aylanganda obrazlilik so`nadi ham.

**1. Emotsional-ekspressivlik funksiyasi.** O`zbek tilining evfemik vositalarini o`rgangan olim A.Abdullayev “Nutqni yorqin, ta’sirchan, jozibali qiladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir”, - deyilgan fikrlarni ma’qullaydi [1] . Faktlar o`zbek nutqining evfemik qatlami ham boyligini va unda ekspressivlik ifodalaydigan rang-barang vositalar mavjudligini ko`rsatadi. Masalan,

*Qani men kelganda kulib, qarshilab*

*Qo`shig`i mavjlanib bir daryo oqqan?*

.....

*Qani o`sha kuychi, xayolchan yigit?*

*Nechun ko`zingda yosh turib qolding lol?*

*Nechun qora libos sochlaringda oq?*

*Nechun bu ko`klamda sen parishonhol? (Zulfiya)*

evfemik matnida evfemik emotionallilik ritorik murojaat, anaforik takror, logik-emfatik urg`u kabi vositalar orqali ifodalangan.

Evfemalarning shakllanishida: 1) bo`yoqdor semali so`zlar, 2) majoziy ma’noli vositalar, 3) murojaat evfemalari, anaforik vosita kabilarning o`rni beqiyos.

**2. Satira va yumor hosil qilish funkuiyasi.** Barcha tasviriy vositalar singari, evfemalar ham nutqda ochiq aytilishi lozim bo`lmagan voqeliklarni hazil, mazax, piching, kesatiq, qochiriq, ishora (tagma’no), shikoyat, hasrat, achinish, nafrat kabi semalar orqali ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilshunoslar frazeologik birliklarning ham xuddi shunday xususiyati haqida fikr bildirganlar. *Darhaqiqat, Dadam odamzotning har ikki yelkasida bittadan farishta o`tiradi, o`ng yelkasida*

*o`tirgan uning savoblarini, chap yelkasida o`tirgan farishta uning gunohlarini yozadi degan edi, ayam tortinibroq ko`z qistirdi: Sizning chap yelkangizga Xudoi Taolo ikkita farishta qo`ysa ham kamlik qiladi, -dedi. (A.Q.), Uzoq yillar dardimizni quduqqa aytib yashadik (S.Ahmad) evfemalarining 1-sida gunohingiz ko`p, 1-sida huquqsizlik tushunchalari qochiriq hasrat semalari orqali ifodalangan.*

Quyidagi matnni ko`rib chiqamiz: - "... choyxonamizda qora choy, ko`k choy, oq choylar bor. Qaysinisidan damlab kelay? – Oq choy bo`lishini endi eshitayapman, u qanaqa choy? - Qora choy qon bosimini ko`taradi, ko`k choy tushiradi. Oq choy hofizlarga". Bu matnda kulgi qo`zg`alishiga "oq choy" birikmasi asos bo`ladi. "Oq choy" birikmasi ikki ma`no ifodalaydi. Birinchisi – "qaynoq suv", ikkinchisi – "spirtli ichimlik – aroq". Ikkala ma`nosi ham matnga ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan mos kelaveradi. Kulgi qo`zg`alishi uchun ikkinchi ma`nosi asos bo`ladi. Birinchi ma`nosi matndagi asos ma`no bo`lib, u hofizlarning ovozi bo`g`ilib qolmasligi uchun qaynoq suv ichishni anglatadi va shu so`z birikmasi ostida "spirtli ichimlik" ma`nosi ham bo`lib, u tagma`no hisoblanadi. Xuddi shu tagma`no kulgiga asos bo`ladi.

**3. Evfema qo`llashning etik-estetik talab normasi.** Voqelikni evfemalashtirish- yumshatilish darajasi har xil bo`lib, uni ko`p hollarda obektiv munosabat boshqaradi. Bunda so`zlovchi yoki yozuvchining intellektual qobiliyati, estetik didi, dunyoqarashi, qaysi sotsial qatlam yoki sinf vakili ekanligi, yoshi, jinsi, kasbi, tarbiyalanganlik darajasi muhim rol o`ynaydi. Masalan, **o`ladi** so`zi o`rnida qo`llanadigan **umri bitganday, tugab qolibdi, vaqti-soati yaqin, omonat bo`lib qolibdi** kabi nisbiy evfemalarning hech qaysisi **chehra ochibdi** iborasini almashtira olmaydi: **Bemorni ko`rib chiqqan bir kampir ko`ziga yosh olib: "Bechora chehra ochayotibdi", dedi** –o`ladi ma`nosida (A.Q.).

Evfema qo`llashning etik-estetik talab normasi psixolingvistik, ekstralingvistik, sotsial yoki etnolingvistik, universallingvistik omillarga amal qilishni ham taqozo qiladi. Chunki ko`p hollarda tabulashtirish barcha xalqlar uchun mushtarak bo`ladi. G` .Salomov yaponlar suhbat davomida "yo`q", "iloji yo`q", "bilmayman", degan so`zlarni sira qo`llamasliklarini, bular kishi ranjituvchi so`zlar bo`lganligidan, rad ma`nosi qochirma vositalar orqali

ifodalanishini, hatto biror tanish tokiolik taklifiga javob qaytarishdan oldin “Xotinim bilan bir maslahatlashib olay” desa, “yo`q” so`zini aytishdan bosh tortish ekanligini yozganki, bu aslida nutq odobi talabi bilan “yo`q” tushunchasini evfemalashtirishdir. Bu hodisa o`zbek tilida ham mavjud. Masalan, **Ovqat yeng, choy iching** deyilganda, yo`q emayman, ichmayman deyish o`rniga **Rahmat, tanovul qildim, ovqatlandim, serob bo`ldim.; Teatrqa boramizmi?** Taklifiga bormayman, vaqtim yo`q deyish o`rnida **rahmat, boshqa vaqt, uydagilardan so`raganim yo`q** yoki aksincha, ha, xo`b, mayli, boraman kabi tasdiq uchun qo`llanadigan so`zlar o`rnida **Xudo xohlasa, nasib bo`lsa, inshoolloh** kabi evfemalashgan vositalar bilan javob beriladi. Yoki **Bu yil qibla safariga borasizmi? –Xudo xohlasa, dedi Salohiddin aka (Surxon tongi), Ibn Sino: Ushbu kitobni menga sotasizmi? – O`zi bir nusxa, -dedi darvish (“Ma`rifat”)** gaplarida ka`ba – qibla safari, boraman – Xudo xohlasa, sotmayman – o`zi bir nusxa iboralari bilan evfemalashtirilishida ham nutqiy kamtarlik, til odobi sabab bo`lgan. Nikohda **“falonchi”ni halol juftlikka – mahramlikka qabul qildingizmi?** kabi evfemik so`roq gaplarga taraflar “ha”, oldim, tegdim deb javob berishlari shart bo`lsa-da<sup>2</sup>, ko`p hollarda, (xususan, qiz) odob va hayo yuzasidan sukut saqlaydi, tasdiq tushunchasi so`zsiz (impliit holatda) anglashiladi. Bu jarayonlar ham etik-estetik talab normasi tomonidan boshqarilgan [10].

## 5.EVFEMIK USLUB TASNIFI

Til ikki qutbga: grammatika (til yaruslari nazarda tutilmoqda) va uslubiyatga ajraladi. Grammatika to`g`ri gapirish va to`g`ri yozish; uslubiyat esa yaxshi gapirish va yaxshi yozish formulasiga bo`ysunadi. Birinchisi, moddiylikka, ikkinchisi ma`naviylikka ega bo`lib, birisiz ikkinchisi mavjud emas. Uslubiyat grammatikani mukammallashtiruvchi oliy forma – figural sistemadir.

**Evfemik nutqning vazifaviy uslublarga munosabati.** Evfemik vositalar birinchi galda **badiiy uslub uchun** xizmat qiladi. U badiiy uslubning oliy formasi, ta`sirchan vositasi, etik-estetik bezagi. Evfemizmlar og`zaki va yozma nutqni rang-

barang, ravon va jozibali qiladi. Ana shu jozibadorlik va taʼsirchanlik ularni uslubiy figura boʻlib kelishini taʼminlaydi va bu esa badiiy matnda namoyon boʻladi. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funktsional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, oʻzida turli uslub koʻrinishlarini muallif ixtiyoriga koʻra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega boʻlgan gʻoyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida boʻlganidek qatʼiy mantiq, soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga toʻla-toʻkis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Taʼsirchanlik birinchi oʻringa koʻtariladi. Ohangdor, jozibador soʻzlar koʻp qoʻllaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uygʻun bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan toʻlqinlantirish, yigʻlatish, kuldirish, xayolot olamiga etaklash, oʻyga choʻmdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga oʻrgatish kabi koʻplab imkoniyatlarni oʻzida mujassam qiladi. Badiiy matn, maʼlumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. Soʻzlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik – semantik, ritmik – intonatsion birliklarning qoʻllanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emoʻional boʻyoqdor soʻzlarga, sheva soʻzlariga, tarixiy va arxaik soʻzlarga, jargon va argolarga, koʻchma maʼnoli soʻzlarga, maʼnodosh, shakldosh, oʻxshash talaffuzli va zid maʼnoli soʻzlarga, shuningdek, ibora, maqol-matal va aforizm hamda evfemik vositalar kabi birliklarga keng oʻrin beriladi.

Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalashning asosiy vositasi badiiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslub insonning feʼl-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarini, tabiatdagi turli voqea – hodisalarni tugal, butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatini oʻzida mujassam qilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Badiiy nutq uslubining eng xarakterli xususiyati tasviriylik va emoʻionallik hisoblanadi. Agar ilmiy uslub umumlashgan tushunchalarni qatʼiy qolipga solingan maxsus terminlar va formulalar bilan anglatrsa, badiiy uslub oʻz zahirasidagi soʻzlar yordamida inson qalbi va tabiatining eng nozik nuqtalarigacha

tasvirlash imkoniyatiga ega. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning tasviriy vositalaridan unumli va ijodiy foydalanadi, shuningdek, o'zi ham yangi so'z va ifoda shakllarini yaratadi. SHuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni ishlatish bilangina chegaralanib qolishmaydi. Mahoratli yozuvchilar uchun mavjud tildagi so'z zahirasi har doim cheklangan imkoniyat hisoblanadi. O'zlari yangidan-yangi individual so'z va iboralar ijod qilish payida bo'lishadi. Badiiy nutqda til betakror qiyofa, fe'l-atvor, voqelikka mos manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Boshqa uslub materiallari badiiy nutqda muallif maqsadiga binoan erkin holda ishlatilishi mumkin. Bu uslubda har bir yozuvchi voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijodiy salohiyati, ifoda mahorati, matni kompozitsion shakllantirish tarziga qarab bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, badiiy nutq uslubi boshqalariga qaraganda keng imkoniyatlarga ega, o'ta qamrovdor va tasviriy ifoda vositalariga boy nutq ko'rinishi hisoblanadi. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi. Chog'ishtiring: *o'pdi- labini labiga qo'ydi, pora berdi – tomog'ini moyladi, o'g'irladi –suv qildi va hokazo.*

Buyuk adib A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida evfemizmlarning yuksak mahorat bilan qo'llanilganligini yaqqol ko'rish mumkin:

*"... Sizni va otamni juda sog'indim, agarda og'ir oyoq bo'lmasam edi, qish bo'lishiga qaramasdan Marg'ilonga jo'nar edim. Qudangiz qayin onamning so'ziga qaraganda kelasi oyga ko'zim yorar emish..."*

*«Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig'lagan Layli otidan – sizga boshimdagi sochlarimning tuklarigacha behad salom. **Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish.** O'tgan ishga salovat. **Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni esga olish mening uchun o'sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim.** SHuning uchun so'zimni o'zimning oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.*

*Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo'lib qochgansiz, ikki yil bo'yi Marg'ilon kelib yurishlaringizni men - o'zimcha echdim, lekin topib echdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o'ch*

*olish uchun bo'lganini angladim. Yo`qsa, meni ko`rar edingiz, ko`rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko`rar edilar, to`yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g`ovg`asi ko`p sizni zir keltirib, jondan to`ydirgan bo`lsa, ajab emaski, qocha boshlagansiz... Qochsangiz qochib ko`ringiz, ammo men bu kundan boshlab, birovlarini quvishga bel bog`ladim. Otam bilan onam rafoqatlarida xizmatigingizga – cho`riligingizga erta-indin yuraman, sevganingiz kundoshim oldida qadru qiymatimning nima bo`lishini ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonlar hurmatiga, ko`ngil uchun kulib boqarsiz... Loqaqal shugina bilan ham baxtsizni mas`ud qilarsiz! Ammo... sevganingiz – kenjangizning jerkishlaridan, qarg`ishlaridan behad qo`rqaman, o`zimda yo`q qo`rqaman. SHu yaqin oradagi uning bilan bo`ladigan mas`ud daqiqalaringizda xudo yo`liga va`da olingiz – meni og`ritmasin, raqibam keldi deb o`ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do`stga bir cho`rilik va shu munosabat bilan birovlarini ko`rib yurish... (A.Qodiriy. “O`tkan kunlar”).*

Parchada haqiqiy musulmonchilik ruhida tarbiyalangan, erning piri borligini butun vujudi bilan his etadigan, uning o`zigagina emas, soyasiga ham ko`rpacha to`shashga rozi, har bir so`zini o`ylab gapiradigan iffatli, hayoli, tom ma`nodagi o`zbek ayoli tasvirlangan. Uning nutqida ishlatilgan evfemik vositalar badiiy asarning ta`sirchan chiqishiga, axloqiy ahamiyat kasb etishiga katta muvaffaqiyat keltira olgan.

Biroq, evfemik vositalarning qo`llanish doirasini badiiy adabiyot bilan chegaralash xatodir. Chunki u **publiuistik uslubning** ham komponenti bo`lib, uning shakllanishida muhim rolb o`ynaydi. Masalan, “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasining 1989- yil 30- iyun sonining birinchi betidagina **vazifasidan ozod qilmoq, tiniq suvni loyqalatmoq, huquq posbonlari, hujjatlar tilga kirdi, “pushtsiz” onalar, o`ttiz bahorni qarshilamoq, shimol lagerlari, o`sha sovuq joylardan tirik chiqmoq, xalqlar otasi, yuqorining topshirig`i, katta rahbarning ishorasi, “yozuv hadya” etmoq** kabi evfemik vositalarning qo`llanganligi fikrimiz dalilidir.

Yoki keyingi vaqtlarda **qo`shib yozish, paxta ishi, o`zbek ishi, qizil imperiya, totalitar tuzum, shimoldagilar, dengiz ortidagi davlat, kunchiqar**

mamlakat, shaxsga sig`inish, nikohni buzmoq, kabinet talashmoq, qo`ltiqtayoq, qonunni chetlab o`tmoq, Orol madad kutadi, oliy jazo, tuyog`i kamaymoq, eshittirishimiz oxiriga (poyoniga, nihoyasiga) etay deb qoldi kabi vositalarning qo`llanganligi publiqistik uslubning evfemik ifodalar bilan boyib borayotganligini ko`rsatuvchi yana bir faktordir.

Evfemik vositalar **so`zlashuv uslubi** tarkibida ham aktiv qo`llaniladi. So`zlashuv nutqi nutq momentidagina mavjudligi, so`z tanlash va so`z qo`llashning yozma nutqqa nisbatan erkinligi, so`z iqtisod qilish qonuniyatining amal qilish jarayonlari evfemadan osonlik bilan foydalanish imkoniyatini beradi[19], shu sabab so`zlovchi ko`pincha *o`libdi* o`rnida *bo`lmabdi*, *o`tibdi*, *ketib qolibdi*, *yo`qolibdi* kabi aytilishi o`ng`ay evfemalarni qo`llaydi.

*Fonus yorug`ida ayolning ko`ylagi qizil ekanini ko`rdim. Ayol keng engi bilan fonusdan ko`zini pana qilib:*

— *Salomalaykum!* — dedi past tovushda.

— *Vaalaykum,* — dedim. — *Kechirasiz, bezovta qildik. Axtamovning uyiga kelgan edik. Oshnamiz bo`ladi u kishi. Ovuldan hali qaytmagan ekanlar. Ovullari uzoqdamish. **Shu kechaga joy bersangiz**, yotsak. Biz ikki kishimiz.*

*Xotin javob bermadi.*

— *Men o`zim Boysundan,* — dedim. — *O`rtog`imiz Toshkentdan. Gumonsiramang.*

— *Shunday-ku,* — dedi ayol nihoyat. — ***Erkagim yo`q. Bo`lmasam...*** (SAYLANMA. Shukur Xolmirzayev. I-jild)

Boshqa misolga murojaat qilamiz:

*Militsioner xo`rsinib, har tarafga boqdi. So`ng magazinga qarab, ichkarida o`ziga tikilib turgan mudirni ko`rdi. Tag`in ortiga qarab olib, shitob bilan xonaga kirdi:*

— ***Yuzta quy!*** — dedi. *Magazinchi o`ylanib:*

— *Bizda... grammlab sotilmaydi-ku,* — dedi.

— *Quy, quy! Gapni cho`zma!* — zamladi militsioner va peshtaxta burchagiga o`tdi.

— *Hov, konfetdan ham bitta ol!*

— *Endi... **yangisini ochar ekanmiz-da,*** — magazinchi to`ng`illab, rastada turgan aroqdan birini oldi-da, kir doka bilan artib, qopqog`ini tishida ochdi. Peshtaxta ostidan piyola olib, pufladi. Aroqdan g`uldiratib quyib, mehmonga uzatdi.

*Militsioner piyolani bir ko'tarishda bo'shatib, konfetdan tishladi. Shimidagi piston cho'ntagini kovladi.*

— *E, qo'yavering, — dedi mudir piyolani olib. Miliyioner peshtaxtaga pul tashlab, eshikka qarab turdi. So'ng papiros tutatdi. Do'konchi bergan qaytimni shineli kissasiga solib:*

— ***Kofirunga** qaysi yo'l yaqin? — dedi.*

— *Hamma yo'l ham, — javob berdi mudir unga hayratlanib qaragancha. — Piyoda borsayam bo'ladi-yu, yomg'irda qolasiz... Soydi kechib o'tish kerak. Suviyam mo'l.*

— *Shu yo'l yaqinroq-a?*

— *Ha, bunisi yaqin. Qirdan oshsangiz, **Kopirin-da.**(SAYLANMA. Shukur Xolmirzayev. I-jild)*

Olimlar tasviriy vositalar vazifaviy uslublarning ilmiy va rasmiy turlari uchun xos emasligini ta'kidlaganlar. Bizning tekshirishlarimiz ham evfemik vositalarning **ilmiy va rasmiy uslub** uchun asosan, xizmat qilmasligini tasdiqlaydi.

## UMUMIY XULOSALAR

Ishning oxirida chiqarilgan xulosalarimizning ba'zilar quyidagilar:

1. Evfema va tabu tushunchalari uzviydir. Evfema dastlab diniy, keyinchalik dunyoviy fikrlash, masalan, axloq-odob normalari, muomala odobi talabi asosida shakllangan. Evfema qo'llash uzoq tarixga ega bo'lsa-da, eng kam o'rganilgan. Uning qo'llanish doirasi, sababi, o'rganish obekti tor tushunilgan, unga aytilishi man etilgan predmetlar nomini yashiruvchi, til egalarini har xil xavflardan, baxtsizliklardan saqlovchi "xaloskor" vosita deb qaralgan.

2. Faktlar hozirgi o'zbek nutqining evfemik qatlamini tilning o'zi kabi tarixiy-evolyutsion jarayonni kechiruvchi soha - uslubshunoslikning tarkibiy qismi sifatida baholash: tasviriy obektini aniqlash, semantik, uslubiy –funktsional tasniflash, uslubshunoslik va uning vazifaviy turlariga munosabatini aniqlash kabilarga imkon beradi.

3. Evfema metaforik, metonimik, sinekdoxaviy, funktsiyadoshlik ko'chimlar asosida shakllangan.

4. Evfemiologiyaning tasviriy obekti juda keng bo'lib, til egalarining barcha maishiy, intim hissiyotlar, jinsiy aloqa, jinsiy va jismoniy nuqsonlari, aytish uyat bo'lgan inson a'zolari nomi, ular bilan bog'liq kiyim nomlari, ovqat hazmi (dissimilyatsiya) bilan bog'liq biologik jarayonlar, ruhiy xastalik, xavfli kasallik nomlari, mansabparastlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, jinoyat, xiyonat, turma hayoti, huquq-tartibot xodimlari nutqi, so'kish, haqorat yoki murojaatlar, diniy-axloqiy iltijolar, xatna, nikoh, o'lim, tug'ilish, siyosat, harbiy sir kabi voqeliklar bilan bog'liq jarayonlarni; evfemik nutq hosil qilishda qo'llanadigan ekstralingvistik vositalarni o'z ichiga oladi. SHunga ko'ra, evfemiyaning ifoda materiali: a)verbal, b) noverbal vositalarga ajraladi.

5. Evfemik vositalar evfemik sinonimiyani hosil qiladi.

6. Evfemik nutq asosan, badiiy, publiqistik, so'zlashuv nutqining tarkibiy qismi bo'lib, masalaning o'rganilishi nutqning vazifaviy turlarini xususiy yo'sinda yoritishga yo'l ochadi.

Darhaqiqat, Navoiy bobomiz so'zning qudratini juda chiroyli ifodalab, *so'z o'lgan odam tanasiga ruh bag'ishlaydi, so'zdan tandagi ruh halok bo'lishi*

*mumkin*, deydi. Haqiqatan, soʻz orqali inson oʻz qalbini, yuragini ochadi. SHuning uchun soʻz inson qalbi koʻzgusi sifatida talqin etiladi. Insonning nutqi orqali uning maʼnaviyati, bilim saviyasi anglashilib turadi. Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu biligʻ” asarida chiroyli va teran nutq irod qilgan kishini dono deb bilib, pala-partish soʻzlagan kishini bilimsiz deydi:

*Dono soʻzi goʻyo oqar suv erur,  
Suv oqsa er uzra koʻp neʼmat unur.*

*Donolar boʻladi misoli chimzor:  
Qayga oyoq qoʻysang, u yerda suv bor.*

*Bilimsizning koʻngli qum erur goʻyo,  
Oʻt-oʻlan oʻsmaydi kirsam ham daryo.*

Bilimli kishilar tanni ijtimoiy mehnat bilan “koyitib”, bilim bilan ovunadilar, buning hisobiga “jon” semiradi. “Jonning semirishi” – inson qalbining maʼnaviy zavq tuygʻulari bilan chulgʻonishidir. Axir:

*Tanani ulushi tamoqdan kirar,  
Jon ulushi – soʻz quloqdan kirar,<sup>1</sup> - deydi.*

Soʻz kishi ruhiyatini aks ettiruvchi noyob boylik hisoblanadi. Uning vositasida insoniyat oʻz bilimlarini, madaniy boyliklarini asrab-avaylab, kelajakka etkazadi. Shuning uchun soʻz – maʼnaviy boyliklarimiz xazinasidir. Unda insoniyatning hozirgi kungacha boʻlgan barcha izlanishlari, tajribalari, madaniy merosi saqlanib kelmoqda.

Soʻzning xususiyati haqida har qancha gapirsak, shuncha ozlik qiladi. A.Navoiy tili bilan aytganda, insonni hayvondan farqini koʻrsatuvchi asos – bu soʻzdir.

*Tangriki, insonni qilib ganji roz,  
Soʻz bilan hayvondin anga imtiyoz.<sup>2</sup>*

---

<sup>1</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Тошкент, 1990 йил, 30-бет

<sup>2</sup> А.Навоий. Ҳайратул-аброр. Тошкент. 1983 йил, 8-бет

## АДАБИЁТЛАР:

### Илмий адабиётлар:

- 1.Абдуллаев А. Риторик сўроқ гаплар эмоционал-экспрессив фикр ифодалаш воситаси сифатида \ \ Ўзбек тили ва адабиёти. -1974, №4 , 47-54-б.
- 2.Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида \ \ Ўзбек тили ва адабиёти. -1992, № 5-6. 38-36-б.
- 3.Бозоров О. Юклама категорияси \ \Ўзбек тили ва адабиёти. -1972, №2, 27-б.
- 4.Икромов Р. Ўзбек тилида отларнинг синтетик-аналитик ва функционал формалари. Т., 1985. 10-б.
- 5.Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис...канд.филол.наук. –Т.,1963. -19 С.
- 6.Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. Тош ДПИнинг «Илмий асарлар»и, 42-т., 1-китоб, Т.,1963, 3-35-б.
- 7.Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап\ \ Ўзбек тили ва адабиёти. -1986, №6, 28-б.
- 8.Мирзаев М. ва бошқ. Ўзбек тили. Тошкент, 1975 йил.
- 9.Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
- 10.Мухаммад Исо ибн Турсунбой ибн Юсуфхон. Ислом дини ва ибодати қоидалари. –Т.: Ўзбекистон,1993. 22-б.
- 11.Нурмонов А.ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, 1992 йил, 113-бет.
- 12.Нурмонов А. Тасдиқ ва инкорнинг паралингвистик воситалар ёрдамида ифодаланиши \ \Ўзбек тили ва адабиёти. -1979, № 1. 132-б.
- 13.Тошалиев И. Стилистик норма муаммолари \ \Ўзбек тили ва адабиёти. - 1989, № 5. 29-б.
- 14.Тошалиев И. Стилистика ўқитишнинг умумий масалаларига доир\ \Ўзбек тилшунослиги масалалари, ТошДУнинг “Илмий асарлар”и, 648-сон. –Т., 1980. 42-б.

- 15.Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972 йил, 341-бет.
- 16.Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.:Ўқитувчи,1980. 290-б.
- 17.Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Тошкент, 1975.
- 18.Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси. –Т.:1995. 55-, 100-, 127-, 146-,149-б.
- 19.Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутқи масалалари. – Т.: Фан, 1975.
- 20.Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Т.:Ўқитувчи, 1985. 19-95-б.
- 21.Ғоибов С. Эмоционал-экспрессив лексик қатлам ҳақида \ \ Ўзбек тили ва адабиёти. -1976, №5. 42-б.
- 22.Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. - Т.,1944.
- 23.Ҳожиёв А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида \ \ Ўзбек тили ва адабиёти. -1978, №1. 3-6-б.

#### **Бадиий адабиётлар:**

- 1.Бобур З.М. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989.
- 2.Навоий А. Муҳокаматул-луғатайн. Асарлар. 14-том. Т.,1967, 107 б.
- 3.Навоий А. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
- 4.Навоий А. Ҳайратул-аброр. Тошкент. 1983, 8-бет.
- 5.Тоғай Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. –Тошкент: Шарқ, 2009.
- 6.Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. –Тошкент: Шарқ, 2009.
- 7.Холмирзаев Шукур. Сайланма. I-жилд. 1980.
- 8.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. Тошкент, 1990, 30-бет.
- 9.Қодирий А. Ўтган кунлар. –Тошкент: Шарқ, 2009.
- 10.333 рубоий. Тошкент, 1991, 70-бет.

## MUNDARIJA

<b>Ishning umumiy tavsifi.....</b>	<b>3</b>
<b>1.Kirish. Evfemizmlar - nutq ko`rki.....</b>	<b>7</b>
<b>2.Evfemik ma'no mezoni va ko`lami.....</b>	<b>18</b>
<b>3.Evfemiyaning semantik tasnifi va ifoda usullari.....</b>	<b>21</b>
<b>4.Evfemik vositalarning funksional-uslubiy tasnifi.....</b>	<b>36</b>
<b>5.Evfemik uslub tasnifi.....</b>	<b>40</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>46</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>49</b>